

“Turonbank” ATB Kengashining  
2026-yil “30” mart dagi  
“№-21” sonli qarori bilan

“TASDIQLANGAN”

“Turonbank” ATB Boshqaruvining  
2026-yil “12” mart dagi  
“38/4”- sonli qarori bilan

“MA’QULLANGAN”

“Ro‘yxatga olindi” № 1293

**“TURONBANK” AKSIYADORLIK TIJORAT BANKI TIZIMIDA  
XARIDLARNI AMALGA OSHIRISH VA MONITORING QILISH  
SIYOSATI**

## MUNDARIJA

1-bob.	Umumiy qoidalar.....	3
2-bob.	Siyosatining asosiy maqsadlari, strategiyasi, tamoyillari va xaridlarni amalga oshirish asosiy jihatlari.....	6
3-bob.	Xarid qilish tartib-taomillari turlari va xaridlarni amalga oshirish tartibi.....	7
4-bob.	Bank Xarid Komissiyasi .....	9
5-bob.	Elektron do‘kondan foydalanish tartibi .....	10
6-bob.	Boshlang‘ich narxni pasaytirish uchun o‘tkaziladigan auksion.....	13
7-bob.	Eng yaxshi takliflarni tanlash tartibi .....	16
8-bob.	Tender o‘tkazilishi tartibi .....	20
9-bob.	Birgalikdagi davlat xaridlari .....	25
10-bob.	Markazlashgan davlat xaridlari.....	25
11-bob.	Hadli kelishuv.....	26
12-bob.	Kichik qiymatli xaridning soddalashtirilgan tartib-taomili .....	26
13-bob.	To‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomalar bo‘yicha davlat xaridlarini amalga oshirish tartibi.....	26
14-bob.	Taklif sorovi .....	27
15-bob.	Fuqarolik huquqiy shartnoma.....	27
16-bob.	Yagona yetkazib beruvchidan davlat xaridini amalga oshirish tartibi .....	28
17-bob.	Bank xaridlari jarayonidagi cheklovlar.....	28
18-bob.	Xarid qilish tartib-taomillarini monitoring va nazorat qilish.....	29
19-bob.	Bank tizimida o‘tkazilgan xaridlar bo‘yicha tegishli ma’lumotlar va hisobotlarni taqdim etish tartibiq.....	31
20-bob	Xaridlar sohasidagi korrupsiya va boshqa huquqbuzarliklarga qarshi kurashish.....	32
21-bob	Shikoyatlarni ko‘rib chiqish.....	32
22-bob	Javobgarlik.....	33
23bob	Yakuniy qoidalar.....	34

Mazkur ““Turonbank” aksiyadorlik tijorat banki tizimida xaridlarni amalga oshirish va monitoring qilish Siyosati” (keyingi o‘rinlarda “Siyosat” deb yuritiladi) O‘zbekiston Respublikasining “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”, “Davlat xaridlari to‘g‘risida”, “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”, “Xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to‘g‘risida”, “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”, “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”, “Raqobat to‘g‘risida”, “Bank siri to‘g‘risida”gi Qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 16-iyundagi “Davlat organlari va tashkilotlarining faoliyati ochiqligini ta‘minlash, shuningdek, jamoatchilik nazoratini samarali amalga oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-6247-son Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 26.12.2025-yildagi PF-259-son, 2021-yil 2-iyuldagi “Davlat xaridlari shaffofligini ta‘minlash va samaradorligini oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5171-son qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoyishi, 18.11.2025-yildagi F-59-son, 2022-yil 25-iyuldagi “Investitsiyaviy va infratuzilmaviy loyihalarning loyihaoldi, davlat xaridiga doir tender bo‘yicha xarid qilish hujjatlari va texnik topshiriqlar hamda shartnomalarni ekspertizadan o‘tkazish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-332-son qarori, Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 20-maydagi 276-son qarori bilan tasdiqlangan “Davlat xaridlarini amalga oshirish bilan bog‘liq tartib-taomillarni tashkil etish va o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi Nizom”, 2024-yil 20-dekabrda “2025-2027-yillarda davlat xaridlari tizimini takomillashtirish va rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 865-sonli qarori, Adliya vazirligida 2000-yil 5-aprelda 916-son bilan ro‘yxatga olingan «Markaziy bank tomonidan tijorat banklarining ichki qoidalariga qo‘yiladigan talablar to‘g‘risidagi Nizom», 2020-yil 30-iyunda 3254-son bilan ro‘yxatga olingan “Tijorat banklarida korporativ boshqaruv to‘g‘risida”gi Nizom, “Turonbank” aksiyadorlik tijorat bankining (keyingi o‘rinlarda “Bank” deb yuritiladi) Ustavi, 2023-2027-yillarda “Turonbank” ATBning rivojlanish strategiyasi, ““Turonbank” ATB tizimida xarajatlarga ruxsat berish va ularni tasdiqlash (Sanksiyalash)” Bankning tegishli ichki qoidalari talablari va tartib-qoidalariga muvofiq hamda Davlat xaridlari to‘g‘risidagi qonun ijrosi yuzasidan ishlab chiqilgan.

## 1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Siyosat “Turonbank” ATB tizimida xaridlarini amalga oshirish bilan bog‘liq tartib-taomillarni tashkil etish va o‘tkazish tartibini, xaridlarni amalga oshirish tartibi asosiy jihatlari, elektron bank xaridlarini o‘tkazishning umumiy shartlari, Bank xaridlari jarayonidagi cheklovlar, Bank xaridlarining asosiy prinsiplari, elektron do‘kondan foydalanish, auksion savdolari, eng yaxshi takliflarni tanlash, tender o‘tkazish tartiblari, xarid qilish tartib-taomillarini monitoring va nazorat qilish bo‘yicha talablar va tartib-qoidalarni belgilaydi.

2. Ushbu Siyosat talablari, tartib qoidalari bank sohasidagi xaridlarni amalga oshirishni belgilaydi.

3. Mazkur Siyosatda quyidagi asosiy tushuncha va atamalardan foydalaniladi:

**Bank** – “Turonbank” aksiyadorlik tijorat banki;

**BXM/BXO** - Bank xizmatlari markazlari, Bank xizmatlari ofisi;

**Rahbar** – “Turonbank” ATB tarkibiy bo‘linmalari va BXM/BXO rahbarlari;

**Bank Kengashi** — bank faoliyatiga umumiy rahbarlikni amalga oshiradi, boshqaruvga oid qarorlar qabul qilish jarayonida nazorat va tekshiruv vazifasini bajaradi hamda umuman bankning faoliyati va moliyaviy barqarorligi uchun javobgardir.

**Bank Boshqaruvi** — bankni boshqarishning ijro etuvchi organi bo‘lib, u bankning kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlangan faoliyat strategiyasi va uni boshqarish tizimiga muvofiq bankning faoliyatiga operativ boshqaruvni amalga oshiradi hamda bankning faoliyati uchun javobgarlikni to‘liq zimmasiga oladi.

**Buyurtmachi** — xaridlarni amalga oshiruvchi “Turonbank” ATB;

**benefitsiar mulkdor** — pirovardida mulk huquqlariga egalik qiladigan yoki tovarlar, ishlar-xizmatlar yetkazib beruvchini amalda nazorat qiladigan jismoniy shaxs;

boshlang‘ich narxni pasaytirish uchun o‘tkaziladigan auksion — davlat xaridlari elektron tizimining maxsus platformasida davlat xaridlarini amalga oshirishning raqobatli usuli bo‘lib, uni tashkil etish chog‘ida narx g‘olibni aniqlashning yagona mezon bo‘ladi;

**xarid** — “Turonbank” ATB ning tovarlar, ishlar va xizmatlarga bo‘lgan ehtiyojlarini pulli asosda ta‘minlash jarayoni;

**shartnoma** — bank va xaridlarining ijrochisi o‘rtasidagi xaridlari bo‘yicha huquqlar va majburiyatlarni belgilash, o‘zgartirish yoki bekor qilish to‘g‘risidagi kelishuv;

**xaridlarining subyektlari** — xarid buyurtmachisi, xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisi, xaridlarining ijrochisi, xarid komissiyasi, davlat xaridlari elektron tizimining operatori, ixtisoslashgan tashkilot va ekspert, ekspert tashkiloti;

**zaxiradagi g‘olib** — xarid qilish tartib-taomillari yakunlari bo‘yicha xarid komissiyasining qaroriga muvofiq g‘olibning taklifidan keyingi eng maqbul taklifni taqdim etgan deb topilgan xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisi;

**kontragent** — Bank bilan xarid jarayonlari doirasida shartnomaviy munosabatlarga kirishishni rejalashtirayotgan har qanday yuridik yoki jismoniy shaxs.

**mas‘ul bo‘linma** — Bankning Xaridlarni tashkil etish va o‘tkazishga mas‘ul bo‘lgan tarkibiy bo‘linmasi hisoblanadi. Mas‘ul bo‘linma Bank tizimidagi xarid qilish tartib-taomillarini tashkil etadi va o‘tkazadi hamda jarayonlarini muvofiqlashtiradi;

**tender** — xaridni amalga oshirishning raqobatli tartib-taomili vositasida xaridlarining ijrochisini aniqlash tartib-taomilini nazarda tutuvchi tanlov bo‘lib, uning natijalariga ko‘ra xaridlari to‘g‘risidagi shartnomani bajarishning eng yaxshi shartlarini taklif etgan xarid qilish tartib-taomillarining ishtirokchisi g‘olib deb topiladi;

**xarid qilish tartib-taomili** — xaridlarini amalga oshirish bilan bog‘liq harakatlar majmui;

**xarid oldi jarayonlari** — xaridlar bo‘yicha murojaatlarni o‘rnatilgan me‘yorlarga muvofiqligini va samaradorligini o‘rganish jarayoni;

**Shartnomalarning yagona reestri** — xaridlari sohasidagi vakolatli organ tomonidan maxsus axborot portalida yuritiladigan, buyurtmachilar tomonidan tuzilgan xaridlar to‘g‘risidagi shartnomalarning reestri;

**elektron xaridlar** — axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda xaridlar amalga oshirish shakli;

**elektron do‘kon** — xaridlarining elektron tizimidagi maxsus maydonda savdolarini elektron shaklda amalga oshirishni nazarda tutuvchi, maxsus talablar qo‘yilmaydigan tovarlar, ishlar-xizmatlarning xaridlarni amalga oshirishning raqobatli usuli;

**eng yaxshi takliflarni tanlash** — xarid qilish tartib-taomillarining bir nechta ishtirokchisidan olingan takliflarni taqqoslash asosida xaridlarni amalga oshirishning raqobatli usuli;

**e'lon** — xaridlarni amalga oshirish usuli, talablari va shartlari, takliflarni taqdim etish muddatlari hamda tartibi ko'rsatilgan, maxsus axborot portali orqali xaridlarining elektron tizimiga bank tomonidan joylashtiriladigan bo'lajak xaridlar to'g'risidagi axborot;

**g'olib** — xarid qilish tartib-taomillari yakunlariga ko'ra taklifi eng maqbul deb topilgan xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisi.

**Ikki bosqichli davlat xaridlari** — texnik jihatdan murakkab bo'lgan muayyan qiymatli tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) bir shartnoma bo'yicha ikki o'zaro bog'liq bosqichda o'tkaziladigan davlat xaridlarini amalga oshirishning raqobatli usuli;

**Xarid maxsus axborot portallari** — xarid.uzex.uz, xt-xarid.uz, etender.uzex.uz, cooperation.uz; ebirja.uz/uz

**Texnik topshiriqnom**a — ishlar-xizmatlarning tasdiqlangan tasnifi;

**Bildirishnoma** — Bank tashabbuskor bo'linmasi tomonidan o'z zaruriyati tasdiqlatilgan tovarlar, ishlar-xizmatlar xaridi uchun ruxsat xujjati;

**Tashabbuskor bo'linma** — Bankning tarkibiy bo'linmasi (Bank xizmatlari markazlari) hisoblanib, ushbu siyosatda o'z extiyoji uchun tovarlar ishlar-xizmatlarga zaruriyati mavjud bo'lgan bo'lim sifatida qaraladi.

**vositachilik yig'imi** — xaridlarining elektron tizimi operatorining xarid qilish tartib-taomillarini amalga oshirish bilan bog'liq xizmatlari uchun undiriladigan yig'im;

**zakalat** — Bank tomonidan elektron do'kon yoki boshlang'ich narxni pasaytirish uchun o'tkaziladigan auksion natijasida tuzilgan shartnoma bo'yicha to'lovlar to'liq hajmda amalga oshirilishini ta'minlash hamda xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchilari tomonidan o'zlarining takliflarini ta'minlash usuli;

**xaridlarining elektron tizimi** — elektron xaridlari jarayonidagi xarid qilish tartib-taomillarini o'tkazishda xaridlarining subyektlari hamkorligini ta'minlaydigan tashkiliy, axborotga oid va texnik yechimlarning dasturiy majmui;

**lot** — turli belgilari bo'yicha guruhlashtirilgan (foydalanish, texnik va funksional xususiyatlariga ko'ra) bir xil turdagi tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) jamlanmasi sifatida buyurtmachi tomonidan belgilangan va alohida xaridlar to'g'risidagi shartnoma bo'yicha xarid predmeti hisobalandigan miqdoriy qism;

**shaxsiy kabinet** — elektron xaridlarida ishtirok etishni hamda zarur axborotni joylashtirishni va undan foydalanishni ta'minlaydigan, xarid subyektlari, xarid komissiyasining mas'ul kotibi, xarid qilish tartib-taomillarining davlat nazoratini amalga oshiruvchi organlarining maxsus axborot portalidagi va (yoki) xaridlarining elektron tizimidagi individual sahifasi;

**elektron taklif** — eng yaxshi takliflarni tanlash va tender tartib-taomilida qatnashish uchun xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisi o'z shaxsiy kabineti orqali elektron ko'rinishda yuboradigan taklif;

**hisob-kitob-kliring palatasi (keyingi o'rinlarda — HKKP)** — avans to'lovlarini deponentlash va ularni hisobga olish yo'li bilan xaridlar to'g'risidagi shartnomalar bo'yicha majburiyatlarni bajara oladigan xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchilari elektron xaridlarga kirishini ta'minlovchi xaridlar elektron tizimining tarkibiy bo'linmasi.

## **2-bob. Siyosatining asosiy maqsadlari, strategiyasi, tamoyillari va xaridlarni amalga oshirish asosiy jihatlari**

### **4. Mazkur Siyosatning asosiy maqsadlari** quyidagilar:

- 1) Bank tomonidan xaridlarni korporativ mijoz sifatida O‘zbekiston Respublikasining xaridlarini tartibga soluvchi qonunchiligiga muvofiq amalga oshirilishini ta’minlash;
- 2) Bank tizimida tovarlar, xizmatlar va ishlarni xarid qilish jarayonlarini shaffoflik va ochiqlik tamoyillariga rioya qilgan holda tashkil etish;
- 3) Bankda xaridlar sohasidagi munosabatlarni tartibga solish;
- 4) Bank tizimida xarid qilish tartib-taomillarini belgilash;
- 5) Bankda xarid qilish tartiblarini belgilash;
- 6) korrupsiyaning har qanday shakl va ko‘rinishda bo‘lishidan qat’iy nazar uni qabul qilmasligini Bank xodimlari, shuningdek, o‘z faoliyati davomida o‘zaro aloqada bo‘lgan uchinchi shaxslar va/yoki boshqa shaxslar ongida shakllantirish.dan iborat.

### **5. Ushbu Siyosatning asosiy vazifalari** quyidagilar hisoblanadi:

- a) Bankning xaridlarni amalga oshirishda O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq xarid qilish tartib-taomillariga to‘liq rioya etish;
- b) Bank faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan tovarlarni, xizmatlarni, ishlarni Bank Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlangan Bankning yillik Biznes-rejasiga muvofiq sotib olishni tashkil etish;
- c) mablag‘lardan samarali foydalanilishini ta’minlash va korrupsiya sxemalari qo‘llanilishiga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida xaridlar ustidan nazorat olib borish;
- d) amalga oshirilgan davlat xaridlarining monitoringini olib borish.

### **6. Siyosat strategiyasining asosiy yo‘nalishlari** quyidagilar:

- a) Bank tomonidan buyurtmalarni shakllantirishda va mahsulotlarni (tovarlarni) yetkazib beruvchilarni aniqlashda ekologik standartlarni belgilash, atrof-muhitga ta’siri kam bo‘lgan, ekologik toza yoki ikkilamchi xomashyo va chiqindilardan tayyorlangan tovarlarni yetkazib beruvchilarga qulayliklar yaratish;
- b) xaridlar jarayonining barcha bosqichlarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va elektron xaridlar ulushini oshirish choralarini ko‘rish;
- c) xaridlarning barcha bosqichlarida kompleks monitoring va samarali nazoratni ta’minlaydigan yagona va yaxlit, samarali davlat xaridlarini boshqarish tizimini yaratish, davlat xaridlarida ishtirok etuvchi barcha tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirish;
- d) “Yashil” xaridlarning ulushini oshirish, shuningdek, xarid jarayonlarida atrof-muhitni himoya qilish va ekologiyaga zarar yetkazilishini oldini olish chora-tadbirlarini amalga oshirish;
- e) shartnomalar bo‘yicha majburiyatlarning bajarilishini monitoring va nazorat qilish, shartnomalarga rioya qilish intizomini mustahkamlash, xarid qilish tartib-taomillarida ishonchli ishtirokchilarning qonuniy huquqlari va manfaatlarini himoya qilish;
- f) xotin-qizlar va nogironligi bo‘lgan shaxslarning mehnatidan foydalanadigan mahalliy ishlab chiqaruvchi kichik biznes subyektlarini qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarni joriy etish;
- g) shikoyatlarni ko‘rib chiqish mexanizmlarini takomillashtirish va avtomatlashtirish;
- h) manfaatlar to‘qnashuvi, korrupsiya va til biriktirish, mablag‘larni noqonuniy o‘zlashtirish hamda shu kabi boshqa huquqbuzarliklarning oldini olish;

i) xaridlar ishonchli ishtirokchilarning qonuniy manfaatlarini himoya qilishda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish, shuningdek, buyurtmachilarning davlat xaridlari to'g'risidagi qonunchilik hujjatlarigarioya etishini tizimli monitoring qilishning samarali mexanizmlarini joriy etish;

j) xaridlarda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish.

**7. Bank xaridlarining asosiy tamoyillari (prinsiplari)** quyidagilardan iborat:

- 1) kasbiy mahorat va mas'uliyatlilik;
- 2) asoslanganlik;
- 3) moliyaviy mablag'lardan foydalanishning oqilonaligi, tejamkorligi va samaradorligi;
- 4) ochiqlik va shaffoflik;
- 5) raqobat va xolislik;
- 6) mutanosiblik;
- 7) davlat xaridlari tizimining yagonaligi va yaxlitligi;
- 8) korrupsiyaga yo'l qo'ymaslik.

**8. Xaridlarning asosiy tamoyillari (prinsiplari)** xaridlar jarayonining barcha bosqichlarida qo'llanilishi kerak.

**9. Bankda xaridlarni amalga oshirish bosqichlari** quyidagilardan iborat:

a) maxsus axborot portalida davlat xaridlarining reja-jadvallarini (tashabbuskor bo'linma tomonidan yuborilgan bildirishnomaga asosan ) joylashtirish;

b) qonunchilik hujjatlarida belgilangan hollarda elektron xaridlarda ishtirok etish uchun avans to'lovlarini kiritish;

c) xaridlarining elektron tizimiga xaridlar o'tkazilishi haqidagi e'lonlarni joylashtirish;

**10. Xaridlarning yillik va choraklik reja-jadvallarini maxsus axborot portalida joylashtirish tartibi va muddatlari** Qonunning 29-moddasiga asosan belgilanadi, jumladan kelgusi yil uchun xaridlarining yillik reja-jadvallari Bank tomonidan joriy yilning **25-dekabriga** qadar maxsus axborot portalida joylashtirilishi kerak bo'ladi.

**11. Bankning barcha tarkibiy bo'linmalar tomonidan o'zlarining kelgusi yillik xarid reja jadvalini joriy yilning 1- dekabrigacha** Xaridlar boshqarmasiga taqdim etishlari shart bo'ladi.

**12. Bank xaridlarining yillik va choraklik reja-jadvallariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritishi** mumkin.

**13. Bankning xaridlari elektron tizimi operatorining, ixtisoslashgan tashkilotning, ekspert tashkilotining mansabdor shaxslari va boshqa xodimlari, shuningdek xarid komissiyasining a'zolari hamda ekspertlar xarid qilish tartib-taomillarini amalga oshirishda o'z ishtirokidagi xaridlariga doir bitimning natijasi bo'lgan har qanday shaxsiy foydani bevosita yoki bilvosita olish huquqiga ega emas.**

### **3-bob. Xarid qilish tartib-taomillari turlari va xaridlarni amalga oshirish tartibi**

**14. Bank tizimida xarid qilish tartib-taomillarini amalga oshirish turlari** quyidagilardan iborat:

- 1) elektron do'kon;
- 2) boshlang'ich narxni pasaytirish uchun o'tkaziladigan auksion;
- 3) eng yaxshi takliflarni tanlash;

- 4) tender;
- 5) to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar bo'yicha amalga oshiriladigan bank xaridlari;
- 6) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari bilan ruxsat etilgan xaridlarning boshqa raqobatli turlari;

7) Xarid qilish tartib-taomillari elektron shaklda amalga oshirilishi mumkin.

**15.** Bank tizimida xaridlarni tashkillashtirish va o'tkazish **quyidagi tartibda** amalga oshiriladi:

- 1) Bank xarid komissiyasi;
- 2) Bank tashabbuskor bo'linmasi bildirishnomasi va texnik topshiriqnomasi;
- 3) xaridlarining reja-jadvallari;
- 4) xaridlari to'g'risidagi e'lonlar;
- 5) hujjatlarning namunaviy shakllari;
- 6) xarid qilish tartib-taomillarida ishtirok etish uchun zarur bo'lgan namunaviy shartnomalar;
- 7) xaridlari bosqichlarining natijalari to'g'risidagi axborot;
- 8) Bank va xarid jarayonlari ishtirokchilari (bundan buyon matnda "ishtirokchi" deb yuritiladi) tomonidan xaridlarda ularning ishtirokini ta'minlovchi avans to'lovlarini kiritish.

**16.** Bankning xaridlarga **tayyorgarligi** quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- a) xaridlarining elektron tizimiga xaridlari o'tkazilishi haqidagi e'lonlarni joylashtirish;

**17.** Bank ehtiyoji uchun tovarlar, ishlar-xizmatlarni auksion, eng yaxshi takliflarni tanlash va tender xarid turlari bo'yicha xarid qilmoqchi bo'lgan tashabbuskor bo'linma, mazkur Tartibning tegishli bandlerida ko'rsatilgan mezonlar asosida xarid predmetining boshlang'ich narxini aniqlash maqsadida zaruriy tovar, ish-xizmatni texnik topshiriqnomasini shakllantradi hamda tanlov komissiyasi a'zolariga tasdiqlatadi.

**18.** Texnik topshiriqnomada ko'rsatilgan narx hamda tovar, ish-xizmatni bank ehtiyojlariga mosligi hamda to'g'riligi uchun tashabbuskor tarkibiy bo'linma hamda Xarid komissiyasi javobgardir.

Tasdiqlangan texnik topshiriqnomani Bosh bankda, Bank boshqaruvi raisi o'rinbosari (tegishliligi bo'yicha)ga, BXMlarda esa BXM rahbariga bildirishnomaga ilova qilgan holda kiritadi. Bosh bankda Xaridlar boshqarmasi tomonidan, BXMda esa tarkibiy bo'linma Bank rahbariyatiga o'rnatilgan tartibda kiritilgan bildirishnomaga asosan xarid qilinadigan tovarlar, ishlar-xizmatlarni maxsus axborot portaliga joylashtiradi.

**19.** Bank rahbariyati tomonidan bildirishnomaga ruxsat berilmagan holatdagina tovar (ish, xizmatlar) xarid qilinishiga ruxsat etilmaydi.

**20.** Bildirishnomalarning amal qilish muddati agar unda muddat ko'rsatilmagan bo'lsa 180 ish kuni hisoblanadi.

**21.** Bankda rejalashtirilgan xaridlarni xarid qilish tartib-taomillarini amalga oshirish turlariga (elektron do'kon, auksion, tanlash, tender va to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar bo'yicha amalga oshiriladigan davlat xaridlari) ajratish taklifi xarid bo'yicha mas'ul xodim tomonidan tayyorlanadi.

**22.** O'zbekiston Respublikasi Prezidentining hujjatlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari bilan ruxsat etilgan xaridlarning boshqa raqobatli turlari qonunchilik talablari asosida amalga oshiriladi.

23. Bank tomonidan maxsus axborot portaliga joylashtiriladigan **reja-jadval** quyidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olishi kerak:

- 1) xarid predmeti;
- 2) xarid o'tkaziladigan oy;
- 3) bankning nomi va manzili;
- 4) xarid predmetini moliyalashtirish manbalari;
- 5) tovarlarni yetkazib berish, ishlarni bajarish va xizmatlarni ko'rsatish joyi (manzili), muddatlari va shartlari.

24. Bank ehtiyoji uchun tovarlar, ishlar-xizmatlarni auksion, eng yaxshi takliflarni tanlash va tender xarid turlari bo'yicha xarid qilmoqchi bo'lgan tashabbuskor bo'linma, mazkur Siyosatning tegishli bandlarida ko'rsatilgan mezonlar asosida xarid predmetining boshlang'ich narxini aniqlash maqsadida zaruriy tovar, ish-xizmatni texnik topshiriqnomasini shakllantradi hamda tanlov komissiyasi a'zolariga tasdiqlatadi. Tasdiqlangan texnik topshiriqnomani Bosh bankda, Bank boshqaruvi Raisi o'rinbosari (tegishliligi bo'yicha)ga, bank xizmatlari markazlarida esa bank xizmatlari markazlari rahbariga bildirishnomaga ilova qilgan holda kiritadi. Bosh bankda **Xaridlar boshqarmasi** tomonidan, bank xizmatlari markazlarida esa bosh buxgalter bildirishnomaga asosan xarid qilinadigan tovarlar, ishlar-xizmatlarni maxsus axborot portaliga joylashtiradi.

25. Bankda xarid qilingan tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni xarid qilish "“Turonbank” ATB tizimida xarajatlarga ruxsat berish va ularni tasdiqlash (Sanksiyalash)” taribiga binoan amalga oshiriladi. Ushbu tartibga rioya qilinishi uchun Buxgalteriya departamenti javobgardir.

#### **4-bob. Bank Xarid Komissiyasi**

26. Bank tizimida belgilangan tartibda xarid qilish tartib-taomillarini tashkil etish va o'tkazish masalalari bilan shug'ullanadigan, tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni tanlash (tender) orqali sotib olish bo'yicha Xarid komissiyasi (keyingi o'rinlarda "Xarid komissiyasi" deb ataladi) tashkil qilinadi.

27. Xarid komissiyasi Bank Boshqaruv Raisi buyrug'iga asosan Boshqaruv raisi o'rinbosarlari, tegishli tarkibiy bo'linmalar rahbarlaridan iborat tarkibda tuziladi. Xarid komissiyasi Komissiya raisi, Komissiya raisi o'rinbosari va a'zolaridan iborat bo'ladi.

28. Xarid komissiyasi kollegial organ hisoblanib, toq sonli a'zolardan iborat bo'ladi, uning a'zolari tarkibi va soni xarid qilish tartib-taomilining turiga bog'liq bo'ladi hamda qonunchilikka muvofiq va olinayotgan tovarning (ishning, xizmatning) xususiyatlari inobatga olingan holda o'zgartirilishi mumkin.

29. Xarid komissiyasi faoliyatining asosiy maqsadi xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchilarining takliflarini buyurtmaga muvofiqlik darajasi bo'yicha xolis baholashdan va tartibga solishdan hamda xaridlar raqobatlashuv usullari orqali amalga oshirilganda g'olibni (g'oliblarni) tanlashdan iborat.

30. Xarid komissiyasi o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasining "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonuni va boshqa amaldagi normativ-huquqiy hujjatlari, Markaziy bankning me'yoriy hujjatlari va ko'rsatmalari, Bankning Ustavi, tegishli ichki qoidalariga hujjatlari va tegishli Nizom talablari asosida olib boradi.

31. Xarid komissiyasi Bank Boshqaruvi oldida hisobdor va Bank Boshqaruvi tomonidan hamda tegishli Nizomga muvofiq berilgan vakolatlar doirasida faoliyat yuritadi. Xarid komissiyasining o‘z vakolatlari doirasida qabul qilingan qarorlari Bankning tarkibiy bo‘linmalari va xodimlari tomonidan bajarilishi majburiydir.

32. Xarid komissiyasi tarkibida manfaatlar to‘qnashuvi mavjud bo‘lgan taqdirda, ushbu shaxs xarid qilish tartib-taomillarini tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha bajariladigan vazifalardan chetlashtiriladi.

Bank bilan manfaatlar to‘qnashuvi mavjud xo‘jalik yurituvchi subyekt Bank tomonidan o‘tkaziladigan davlat xaridlari ishtirokchisi bo‘lishi mumkin emas.

33. Xarid komissiyasining tezkor faoliyati ishtirokchilar tomonidan taqdim etilgan tegishli hujjat va takliflarni baholash uchun ovoz berish huquqiga ega bo‘lmagan mas‘ul kotibi (keyingi o‘rinlarda — “mas‘ul kotib” deb ataladi) tomonidan tashkil etiladi. Komissiya kotibi Xarid komissiyasi ish faoliyatini tezkor tashkil etish, yig‘ilishlarda rasmiylashtirilgan bayonnomalarini hisobini yuritish hamda uni saqlash vazifalarini bajaradi.

34. Komissiya kotibi tovarlar (ishlar, xizmatlar) xarid qilish yuzasidan ruxsat berish bo‘yicha qarorlarda ishtirok etmaydi hamda qabul qilingan qarorlar uchun javobgar emas.

35. Bank Xarid komissiyasining tarkibiy tuzilishi, ishlash tartibi, shuningdek ushbu Komissiyaning vakolatlari, vazifalari, huquq va majburiyatlari ““Turonbank” aksiyadorlik tijorat banki Xarid komissiyasining Nizomi”da belgilab beriladi.

## **5-bob. Elektron do‘kondan foydalanish tartibi**

### **1-§. Elektron davlat xaridlarini o‘tkazishning umumiy shartlari**

36. Elektron davlat xaridlarida ishtirok etish uchun Bank va ishtirokchilar operatorning vositachilik yig‘imini va tomonlarning zakalatini (bundan xarid komissiyasi tomonidan zakalat to‘lash talabi belgilamagan hollar mustasno) HKKPdagi shaxsiy hisobvaraqlariga o‘tkazadilar.

37. Bank o‘zining HKKPdagi hisobvaraqlarida davlat xaridlarining elektron tizimi operatorining vositachilik yig‘imi va tomonlarning zakalati summasini to‘lash uchun yetarli bo‘lgan avans to‘lovini o‘tkazgandan so‘ng elektron xaridlarda ishtirok etadilar.

38. Bank va ishtirokchilar HKKPdagi shaxsiy hisobvaraqlariga avans to‘lovlarini kiritganlaridan so‘ng elektron bank xaridlariga (bundan buyon matnda elektron xaridlar deb yuritiladi) qo‘yiladi.

39. Bank va ishtirokchilar elektron xaridlardagi ishtiroklarini elektron raqamli imzolaridan (bundan buyon matnda ERI deb yuritiladi) foydalangan holda amalga oshiradi. Buyurtmachi va ishtirokchi tomonidan ERIdan foydalanish, elektron tizimda tuziladigan shartnomalarni haqiqiy deb topish uchun asos bo‘lib hisoblanadi.

40. Bank va ishtirokchi tomonidan kiritilgan zakalat shartnoma majburiyati bajariladigan vaqtga qadar yoki shartnoma qonun hujjatlarida belgilangan tartibda bekor qilingunga qadar xatlab qo‘yiladi.

41. Ishtirokchilarning zakalati boshqa ishtirokchilar tomonidan pastroq narxdagi taklif berilgunga qadar xatlanadi.

42. Auktsion ishtirokchisi zakalati boshqa ishtirokchi tomonidan undan ko‘ra pastroq narxdagi taklif berilgunga qadar band qilib qo‘yiladi.

Elektron do‘kon ishtirokchilarining zakalati g‘olib aniqlangunga qadar operator tomonidan band qilib qo‘yiladi.

Elektron do‘kon va auksion o‘tkazishda Bank va davlat xaridlari ijrochisining (keyingi o‘rinlarda — ijrochi) kiritgan zakalatlari shartnoma bo‘yicha majburiyatlar to‘liq bajarilgan yoki belgilangan tartibda bekor qilingunga qadar band qilib qo‘yiladi.

**43.** Bank va ishtirokchilar HKKPdagi shaxsiy hisobvaraqlariga:

a) elektron do‘konda ishtirok etishdan oldin ishtirokchining ofertasi qiymatining 3 foizi miqdorida;

b) auksionda ishtirok etishdan oldin auksionning boshlang‘ich narxidan 3 foiz miqdorida zakalat o‘tkazadilar.

**44.** Bank tomonidan tanlash yoki tender o‘tkazishda ishtirokchilar tomonidan zakalat kiritish zarurati hamda kiritiladigan zakalat miqdori xarid komissiyasi tomonidan belgilanadi. Ishtirokchilarning zakalati operator tomonidan g‘olib aniqlangunga qadar band qilib qo‘yiladi.

Tanlash yoki tender g‘olibining zakalati shartnoma tuzilguniga qadar band qilib qo‘yiladi. Bunda g‘olib shartnoma tuzishni rad etgan taqdirda, unga zakalat summasi qaytarib berilmaydi va mazkur mablag‘lar operator tomonidan buyurtmachilarining tegishli hisobvarag‘iga o‘tkazib beriladi.

Tanlash yoki tender bo‘yicha xarid qilish hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda ijrochining kiritgan zakalati shartnoma bo‘yicha majburiyatlar to‘liq bajarilgan yoki belgilangan tartibda bekor qilingunga qadar band qilib qo‘yiladi.

Zakalat miqdori tanlashni o‘tkazishda tovar (ish, xizmat) qiymatining 3 foizidan, tender o‘tkazishda esa 5 foizidan oshmagan holda belgilanishiga yo‘l qo‘yiladi. Bunda xarid komissiyasi ishtirokchilarga nisbatan takliflarning garov yoki kafolat tarzida yoxud qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa usulda ta‘minlanishi zarurligi to‘g‘risidagi talabni belgilashga haqli.

**45.** Xaridlarining elektron tizimi avtomatik rejimda quyidagilarni amalga oshiradi:

a) buyurtmachi va ishtirokchiga kiritilgan avans summasiga muvofiq har bir lot bo‘yicha elektron xaridlardan foydalanish imkoniyatini yaratish;

b) elektron davlat xaridlarini o‘tkazish;

c) ishtirokchilarni aniqlash va shartnomani shakllantirish;

d) elektron davlat xaridlari ishtirokchilarining takliflarini Soliq qo‘mitasi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi, Adliya vazirligi ma‘lumotlar bazalariga integratsiyalashuvi orqali baholash uchun zarur bo‘lgan ma‘lumotlar bilan buyurtmachisi va xarid komissiyasini ta‘minlaydi.

**46.** Elektron xaridlarning yakuniga ko‘ra xaridlar elektron tizimi tomonidan avtomatik ravishda namunaviy shakl asosida shartnoma shakllantiriladi va shartnoma tomonlarining shaxsiy kabinetlariga yuboriladi, shuningdek, tuzilgan shartnomalar elektron reestriga kiritish orqali ro‘yxatdan o‘tkaziladi.

**47.** Bank elektron do‘kon yoki auksion natijasida tuzilgan shartnoma bo‘yicha to‘lovlarni to‘liq hajmda amalga oshirish uchun ushbu shartnoma davlat xaridlarining elektron tizimida ro‘yxatga olingan paytdan boshlab o‘n ish kuni mobaynida o‘zlarining HKKPdagi hisobvarag‘iga mablag‘larni o‘tkazadilar. Bunda zakalat shartnoma bo‘yicha to‘lov summasiga qo‘shib hisoblanishi mumkin.

Korporativ buyurtmachilar Bank tanlash yoki tender natijasida tuzilgan shartnoma bo‘yicha to‘lovlarni HKKPdagi shaxsiy hisobvaraqlaridan foydalangan holda amalga oshirishi mumkin.

48. Bank elektron do‘kon yoki auksion orqali tuzilgan shartnomada belgilangan muddatda to‘lovni amalga oshirmasa, uning zakalati bir ish kunida ijrochining HKKPdagi tegishli hisobvarag‘iga o‘tkaziladi.

49. HKKP Bankdan elektron do‘kon yoki auksion orqali tuzilgan shartnoma bo‘yicha tushgan to‘lov summasini band qilib qo‘yadi va mablag‘lar tushgan kundan keyingi ish kundan kechiktirmasdan bu haqida ijrochiga xabarnoma yuboradi.

Mazkur xabarnoma ijrochiga tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) yetkazib berish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

## 2-§. Elektron do‘kondan foydalanish

50. Bank ehtiyoji uchun tovarlar, ishlar-xizmatlarni elektron do‘kondan xarid qilmoqchi bo‘lgan tashabbuskor bo‘linma, mazkur Siyosatning tegishli bandlarida ko‘rsatilgan mezonlar asosida xarid predmetining boshlang‘ich narxini aniqlash maqsadida zaruriy tovar, ish-xizmatni texnik topshiriqnomasini shakllantradi hamda tanlov komissiyasi a‘zolariga tasdiqlatadi. Tasdiqlangan texnik topshiriqnomani Bosh bankda, Bank boshqaruvi Raisi o‘rinbosari (tegishliligi bo‘yicha)ga, bank xizmatlari markazlarda esa bank xizmatlari markazi rahbariga bildirishnomaga ilova qilgan holda kiritadi. Bosh bankda Xaridlar boshqarmasi tomonidan, bank xizmatlari markazlarda esa tegishli tarkibiy bo‘linma asosan xarid qilinadigan tovarlar, ishlar-xizmatlarni elektron do‘konning maxsus axborot portaliga joylashtiradi. Xaridlar eshop.uzex.uz, cooperation.uz, xt-xarid.uz yoki emilliydo‘kon.uzex.uz maxsus axborot portallari orqali amalga oshiriladi.

51. Elektron do‘kon maxsus axborot portaliga joylashtirilganligi to‘g‘risidagi ma‘lumotlar **Xaridlar boshqarmasi** tomonidan tashabbuskor bo‘linmaga yetkazilishi lozim.

Elektron do‘konda ishtirokchilarning takliflari shakllantiriladi. Ishtirokchining elektron do‘konga qo‘yilgan taklifi buyurtmachilarga yuborilgan ommaviy ofertadir.

Qonunning **49-moddasiga** muvofiq elektron do‘konda quyidagi bank xaridlari amalga oshirilishi mumkin:

a) bir shartnoma bo‘yicha bazaviy hisoblash miqdorining yigirma besh ming baravarigacha qiymatdagi tovarlar;

b) bir shartnoma bo‘yicha bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravarigacha qiymatdagi ishlar-xizmatlar xaridlari amalga oshirilishi mumkin;

52. Ayni bir turdagi ishlar-xizmatlarning xarid bir moliya yili davomida bazaviy hisoblash miqdorining bir ming baravaridan oshib ketmasligi kerak.

Bosh bank **Xaridlar boshqarmasi** ma‘sul xodimi (Bank xizmatlari markazlarda tegishli tarkibiy bo‘linma) elektron do‘konda ishtirokchilarning ofertalarini o‘rganish yo‘li bilan zarur bo‘lgan tovarlar, ishlar-xizmatlarni tanlaydi va xarajatlar moddasini belgilagan holda narxlar so‘rovi mexanizmidan foydalanadi.

53. Narxlar so‘rovi mexanizmi, buyurtmachiga o‘xshash tovarlar, ishlar-xizmatlarni taklif etayotgan ishtirokchilardan pastroq narxni so‘rash imkoniyatini taqdim etadigan elektron tizimning funksiyasidan iborat.

Bank tomonidan narxlarni o‘rganish xaridlarining elektron tizimi yoki boshqa ochiq manbalarning ma‘lumotlaridan foydalanish orqali amalga oshirilishi mumkin.

54. Xaridlarining elektron tizimi Bank va eng past narxni taklif qilgan ijrochi o'rtasida tuzilgan bitimni ro'yxatdan o'tkazadi.

Ishtirokchilar tomonidan berilgan narx bo'yicha takliflarni taqqoslash portal tomonidan avtomatik rejimda amalga oshiriladi.

Ishtirokchilar to'g'risidagi ma'lumotlardan buyurtmachi yoki ishtirokchilar yakuniy natijalar e'lon qilinguniga qadar foydalana olmaydi. Ijrochining nomi va uning taklif qilgan narxi g'olib aniqlangan paytda portalda aks ettiriladi.

55. Tasdiqlangan texnik topshiriqnomaga Bosh Bankda, Bank boshqaruvi Raisi o'rinbosari (tegishliligi bo'yicha)ga, BXMLarda esa BXM rahbariga bildirishnomaga ilova qilingan holda kiritiladi. Bosh Bankda Xaridlar boshqarmasi tomonidan, BXMLarda esa tegishli tarkibiy bo'linma bildirishnomaga asosan xarid qilinadigan tovarlar, ishlar-xizmatlarni elektron do'konning maxsus axborot portaliga joylashtiradi. Xaridlar eshop.uzex.uz, cooperation.uz, xt-xarid.uz yoki emilliydo'kon.uzex.uz maxsus axborot portallari orqali amalga oshiriladi.

56. Elektron do'konda ishtirokchilarning takliflari shakllantiriladi. Ishtirokchining elektron do'konga qo'yilgan taklifi buyurtmachilarga yuborilgan ommaviy ofertadir.

57. Bosh bank Xaridlar boshqarmasi ma'sul xodimi (BXMLarda tegishli tarkibiy bo'linma) elektron do'konda ishtirokchilarning ofertalarini o'rganish yo'li bilan zarur bo'lgan tovarlar, ishlar-xizmatlarni tanlaydi va xarajatlar moddasini belgilagan holda narxlar so'rovi mexanizmidan foydalanadi.

58. Narxlar so'rovi mexanizmi, buyurtmachiga o'xshash tovarlar, ishlar-xizmatlarni taklif etayotgan ishtirokchilardan pastroq narxni so'rash imkoniyatini taqdim etadigan elektron tizimning funksiyasidan iborat.

59. Bank tomonidan narxlarni o'rganish davlat xaridlarining elektron tizimi yoki boshqa ochiq manbalarning ma'lumotlaridan foydalanish orqali amalga oshirilishi mumkin.

60. Xaridlarining elektron tizimi Bank va eng past narxni taklif qilgan ijrochi o'rtasida tuzilgan bitimni ro'yxatdan o'tkazadi.

61. Ishtirokchilar tomonidan berilgan narx bo'yicha takliflarni taqqoslash portal tomonidan avtomatik rejimda amalga oshiriladi.

62. Ishtirokchilar to'g'risidagi ma'lumotlardan buyurtmachi yoki ishtirokchilar yakuniy natijalar e'lon qilinguniga qadar foydalana olmaydi. Ijrochining nomi va uning taklif qilgan narxi g'olib aniqlangan paytda portalda aks ettiriladi.

63. Portalda ro'yxatdan o'tkazilgan ishtirokchilarning hech biri dastlabki taklifdan pastroq narxni taklif qilmasa, portal bank va ijrochi o'rtasidagi bitimni ro'yxatdan o'tkazadi.

## **6-bob. Boshlang'ich narxni pasaytirish uchun o'tkaziladigan auksion**

### **1-§. Auksion o'tkazish shartlari va asosiy jihatlari**

64. "Davlat xaridlar to'g'risida"gi qonunning **52-moddasiga** asosan auksion vositasidagi bank xaridi quyidagi shartlar bir vaqtning o'zida bajarilgan taqdirda amalga oshiriladi:

- 1) tovarning standart xususiyatlarga ega bo'lishi;
- 2) tovarning texnik, ekspluatatsiya qilinish xususiyatlarini va boshqa xususiyatlarini baholash hamda taqqoslash zaruratining mavjud emasligi;
- 3) xizmatlarning, ishlarning bank xaridi obyektiga bo'lmashligi.

65. Tovarni e'londa bayon etilgan shartlar asosida eng past narx bo'yicha yetkazib berishni taklif qilgan ishtirokchi auksion g'olibi bo'ladi. Bunda mazkur norma belgilangan sifat standartlariga muvofiq bo'lgan tovarlarni yetkazib berish talabini bekor qilmaydi.

66. Auksion faqat elektron shaklda o'tkaziladi. Auksionda ishtirok etish uchun Bank tomonidan maxsus axborot portali orqali xaridlarining elektron tizimiga e'lon joylashtiradi.

67. Auksion o'tkazilishi to'g'risidagi e'londa quyidagi ma'lumotlar bo'lishi kerak:

1) bank nomi va manzili;

2) auksionning birinchi va oxirgi kuni (auksion o'tkaziladigan davr);

3) auksion predmetining boshlang'ich narxi;

4) auksion predmeti va uning xususiyati (auksion predmetining tasnifi);

5) tovarning miqdori;

6) tovarlarni yetkazib berish muddatlari va shartlari;

7) tovarlar yetkazib beriladigan joy (manzil);

8) tovarning amaldagi standart talabiga muvofiqligini tasdiqlovchi hujjat mavjudligi haqidagi talab;

9) tovar majburiy sertifikatlashtirilishi talab etiladigan hollarda, muvofiqlik sertifikati va sanitariya-epidemiologik xulosa mavjudligi to'g'risidagi talab;

10) zarur bo'lganda, litsenziya, ruxsat etish xususiyatiga ega boshqa hujjat yoxud faoliyatni boshlagani haqidagi xabarnoma mavjudligi to'g'risidagi talab;

11) tovarning o'ziga xos xususiy parametrlarini ifodalovchi shartlar.

68. Auksion o'tkazilishi to'g'risidagi e'londagi tovarning matniga auksion predmetiga taalluqli bo'lmagan va ishtirokchilar o'rtasida raqobatni cheklaydigan talablarni kiritish taqiqlanadi.

69. Bank ehtiyojlari uchun tovarlar auksion orqali xarid qilinganda, tashabbuskor bo'linma tomonidan mazkur siyosatga asosan Bank boshqaruvi Raisi o'rinbosari (tanlash komissiyasi raisi)ga (bank xizmatlari markazi rahbari)ga bildirishnoma kiritadi.

70. Xarid komissiyasi tomonidan tasdiqlangan texnik topshiriqnoma asosida tashabbuskor bo'linma barcha zarur hujjatlar ya'ni tovarlar bo'yicha batafsil ma'lumot maxsus axborot portali elektron do'konidan xarid qilish uchun **Xaridlar boshqarmasiga** (bank xizmatlari markazi tegishli tarkibiy bo'linma)ga taqdim etadi. Xaridlar "**exarid.uzex.uz**" yoki "**xt-xarid.uz**" **new.cooperation.uz, e.birja.uz** maxsus axborot portallari orqali amalga oshiriladi.

71. Tashabbuskor bo'linma tomonidan taqdim etilgan bildirishnoma (texnik topshiriqnomasi bilan) asosida auksion o'tkazish haqida xaridlar reja-jadvaliga muvofiq portalga joylashtiriladi.

72. Bank tomonidan auksionda ishtirok etishda oldin bankning HKKPdagi shaxsiy hisobraqamlariga auksionning boshlang'ich narxidan 3 foiz miqdorida zakalat mablag'i tegishli o'tkazib beriladi.

Agar buyurtmachining e'londa boshqa holatlar ko'zda tutilmagan bo'lsa, ishtirokchi yangi tovarni yetkazib berishi shart.

Auksion elektron tizimda boshlang'ich narxni qadam-baqadam pasaytirish yo'li bilan o'tkaziladi. Qadam o'lchovi operator tomonidan vakolatli organ bilan kelishilgan holda

belgilanadi, lekin ishtirokchi tomonidan kiritiladigan zakalat miqdoridan ortiq bo'lishi mumkin emas.

Auksion tugaydigan vaqt kelganda portal auksion o'tkazilgan vaqt davomida berilgan takliflar orasida eng past narxni taklif qilgan taklifni avtomatik ravishda aniqlab oladi. Eng past narx ko'rsatilgan taklifni bergan ishtirokchi auksion g'olibi sifatida portal tomonidan saralab olinadi. Ijrochining nomi portalda aks ettirilib, ushbu tizim tuzilgan bitimni avtomatik ravishda qayd etadi va buyurtmachining buyurtmanomasida bayon etilgan shartlarga muvofiq shartnomani shakllantiradi. Mazkur auksion natijalariga ko'ra elektron shaklda avtomatik tuzilgan shartnomalarni, Xaridlar boshqarmasi tomonidan tegishliligiga ko'ra bankning tashabbuskor tarkibiy bo'linmasiga taqdim etadi, tashabbuskor bo'linmaning ma'sul xodimi tomonidan (bank xizmatlari markazi tegishli tarkibiy bo'linma) mazkur shartnomada belgilangan muddatlarda to'lovlarni amalga oshiriladi hamda shartnomaga tegishli bo'lgan hisob-fakturalar asosida tovarlarni kiritish bo'yicha ishlarni amalga oshiriladi va nazorat qilinadi.

**73.** Auksion yakunlanib shartnoma bo'yicha to'lovlar to'liq amalga oshirilgandan so'ng **1 kun davomida** tashabbuskor bo'linma tomonidan barcha hujjatlar nusxasi (shartnoma, farmoyish, hisob-fakturalar va boshqalar) **Xaridlar boshqarmasiga** maxsus axborot portaliga elektron ravishda kiritish maqsadida taqdim etilishi shart.

Agar auksionda bir nafar ishtirokchi ishtirok etgan bo'lsa yoki hech kim ishtirok etmagan bo'lsa, auksion o'tkazilmagan deb hisoblanadi va g'olib aniqlanmaydi. bank auksionni uch ish kuniga uzaytirishi yoki xaridni ushbu Qonun talablariga muvofiq elektron do'kon vositasida (davlat xaridlari to'g'risidagi **49-moddasida** belgilangan mezonlar doirasida) yoki eng yaxshi takliflarni tanlash orqali amalga oshirishi mumkin.

Auksionni uzaytirish avvalgi auksion tamom bo'lgan paytdan e'tiboran uch ish kuni ichida bank tomonidan amalga oshiriladi.

## **2-§. Auksionda xaridlarni amalga oshirish**

**74.** Xarid bo'yicha mas'ul xodim maxsus axborot portalini orqali davlat xaridlarining elektron tizimiga davlat xaridlarining reja-jadvaliga muvofiq auksion o'tkazilishi to'g'risidagi e'lonni joylashtiradi.

**75.** Auksion orqali davlat xaridlarini amalga oshirish uchun davlat buyurtmachisi maxsus axborot portalini orqali davlat xaridlarining elektron tizimiga davlat xaridlarining reja-jadvaliga muvofiq auksion tugaydigan sanadan kamida besh ish kuni avval e'lonni joylashtiradi.

**76.** Xarid bo'yicha mas'ul xodim zarur hollarda alohida tovarlar bo'yicha e'lon va buyurtmanoma matni xaridlar elektron tizimida (auksionda) joylashtirilishidan oldin tegishli mutaxassislar bilan jalb qilish to'g'risida taklif tayyorlaydi hamda Buxgalteriya hisobi departamenti va Kompyuterni nazorati departamenti bilan kelishilgan holda Bankning tegishli mutaxassislariga topshiriq berilishi uchun Xarid komissiyasi raisiga kiritadi.

Auksion o'tkazilishi to'g'risidagi e'lonning va buyurtmanomaning matniga auksion predmetiga taalluqli bo'lmagan va ishtirokchilar o'rtasida raqobatni cheklaydigan talablar kiritilmasligi kerak.

## **7-bob. Eng yaxshi takliflarni tanlash tartibi**

### **1-§. Eng yaxshi takliflarni tanlash asosiy jihatlari**

77. Eng yaxshi takliflarni tanlash (bundan buyon matnda tanlash deb yuritiladi) vositasidagi xarid quyidagi shartlar bir vaqtning o'zida bajarilgan taqdirda elektron tarzda amalga oshiriladi:

g'olibni aniqlash mezonlari tovarlar ishlar-xizmatlar davlat xaridining nafaqat pul ifodasiga, balki miqdoriy va sifat bahosiga ham ega bo'ladi;

Agar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari bilan davlat buyurtmachilariga tender o'tkazmasdan xaridlarni amalga oshirish huquqi berilsa, xarid qilish tartib-taomili davlat xaridining summasidan qat'i nazar tanlash orqali amalga oshiriladi. Bunda tovarlar ishlar-xizmatlarning qiymati bazaviy hisoblash miqdorining yigirma besh ming baravari miqdoridan oshgan hollarda davlat xaridiga doir texnik topshiriqlar qonunchilikda belgilangan tartibda ekspertiza uchun O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi huzuridagi "Loyihalar va import kontraktlarini kompleks ekspertiza qilish markazi" davlat unitar korxonasi (bundan buyon matnda Kompleks ekspertiza qilish markazi deb yuritiladi) kiritiladi.

78. Tanlash majburiy tartibda elektron shaklda o'tkaziladi, bundan qonunchilikda nazarda tutilgan hollar mustasno.

### **2-§. Tanlashni o'tkazishda xarid komissiyasi ish faoliyati hamda tanlash hujjatlarini ishlab chiqish va tanlash o'tkazilishi haqida e'lon berish**

79. Tanlashni o'tkazishda Xarid komissiyasi ishini tashkil etish ushbu Siyosatga va Bankning tegishli ichki qoidalar hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

80. Bank ehtiyoji uchun tovarlar tanlov asosida xarid qilinganda tashabbuskor bo'linma tomonidan tanlov hujjatlarining, shartnoma va tanlov o'tkazish haqidagi e'lonning matni ishlab chiqilib, mazkur siyosatda ko'rsatilgan mezonlar asosida xarid predmetining boshlang'ich narxini aniqlash maqsadida zaruriy tovar, ish-xizmatni texnik topshiriqnomasini shakllantradi hamda tanlov komissiyasi a'zolariga tasdiqlatadi. Tasdiqlangan texnik topshiriqnomani Bosh bankda, Bank Boshqaruvi Raisi o'rinbosari (tegishliligi bo'yicha)ga, bank xizmatlari markazlarda esa bank xizmatlari markazi rahbariga bildirishnomaga ilova qilgan holda kiritadi hamda Bosh bank tanlov komissiyasi raisi (Bank xizmatlari markazi tanlov komissiyasi raisi) tomonidan tasdiqlanadi. Xaridlar boshqarmasi (bank xizmatlari markazi) tomonidan tovarlar, ishlar-xizmatlarni tanlash orqali xarid qilish bo'yicha tegishli barcha hujjatlar maxsus axborot portaliga joylashtiradi.

81. Tanlash bo'yicha xarid qilish hujjatlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- 1) tanlash o'tkazilishi to'g'risidagi e'londa ko'rsatilgan axborot;
- 2) ijrochilar bilan hisob-kitoblarni shakllantirish uchun foydalaniladigan valyuta, to'lov tartibi va yetkazib berish shartlari haqidagi axborot;
- 3) ishtirokchilarga tanlash bo'yicha xarid qilish hujjatlari qoidalariga doir tushuntirishlarni taqdim etish tartibi.
- 4) texnik topshiriq;

Qonunga muvofiq takliflarni baholash mezonlari va ko‘rib chiqish tartibi;  
tanlash ishtirokchilari tomonidan korrupsiya ko‘rinishlariga yo‘l qo‘ymaslik bo‘yicha ariza taqdim etish majburiyligi haqidagi talab.

**82.** Tanlash bo‘yicha xarid qilish hujjatlarida bank har bir tovar, ish-xizmatni xarid qilish tartib-taomilining alohida birligi sifatida ko‘rib chiqilishini e‘lon qilishi mumkin. Bunday holda bank turli tovarni, ish-xizmatni yetkazib berish uchun tanlashning bir nechta ishtirokchisi bilan shartnomalar tuzishi mumkin, bunda har bir tovar, ish-xizmat uchun faqat bitta g‘olib aniqlanishi mumkin. Har bir tovar, ish-xizmat uchun g‘olib xarid qilish tartib-taomilining shartlariga ko‘ra alohida-alohida aniqlanadi.

**83.** Tanlash bo‘yicha xarid qilish hujjatlariga ularning ajralmas qismi bo‘lgan shartnoma loyihasi ilova qilinadi.

**84.** Bank xarid komissiyasi bilan kelishilgan holda tanlash bo‘yicha xarid qilish hujjatlarini tasdiqlaydi.

**85.** Bank xarid komissiyasi bilan kelishilgan holda tanlashda ishtirok etish uchun takliflar berish muddati tugaydigan sanadan bir ish kunidan kechiktirmay tanlash bo‘yicha xarid qilish hujjatlariga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida qaror qabul qilishga haqli. Bunda ushbu tanlashda takliflarni taqdim etishning tugash muddati kamida uch ish kuniga uzaytiriladi. Shu bilan birga, e‘londa ko‘rsatilgan axborot o‘zgartirilgan bo‘lsa, tanlash o‘tkazish to‘g‘risidagi e‘longa o‘zgartirishlar kiritiladi. Tovarlar, ishlar-xizmatlarni o‘zgartirishga yo‘l qo‘yilmaydi.

### **3-§. Tanlash ishtirokchilarining takliflarini berish tartibi**

**86.** Tanlash ishtirokchilarining takliflari elektron shaklda beriladi, bunda e‘londa va tanlash bo‘yicha xarid qilish hujjatlarida belgilangan tartibda tanlash o‘tkazish to‘g‘risidagi e‘londa ko‘rsatilgan muddatlarda avval elektron tarzda tanlash ishtirokchilari tomonidan korrupsiya ko‘rinishlariga yo‘l qo‘ymaslik bo‘yicha ariza taqdim etilib keyin takliflar taqdim etiladi.

**87.** Tanlash o‘tkazish chog‘ida ishtirokchilarining elektron takliflari berish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

**88.** Taklifda davlat xaridi obyekti bo‘lgan tovarning eskizi, rasmi, chizmasi, fotosurati va boshqa tasviri, nusxasi, namunasi bo‘lishi mumkin.

**89.** Tanlash ishtirokchisi taqdim etilayotgan axborot va hujjatlarning haqiqiyliги va to‘g‘riligi uchun javobgar bo‘ladi.

**90.** Tanlash ishtirokchisi faqat bitta taklif berishga haqli.

**91.** Tanlash uchun takliflarni qabul qilish maxsus axborot portali orqali davlat xaridlarining elektron tizimida chop etilgan e‘londa ko‘rsatilgan muddat kelishi bilan tugatiladi.

### **4-§. Tanlashni o‘tkazish natijalarini sarhisob qilish**

**92.** Agar tanlashda ishtirok etish uchun takliflarni taqdim etish muddati tugagan paytda faqat bitta taklif taqdim etilgan yoki birorta ham taklif taqdim etilmagan bo‘lsa, tanlash o‘tkazilmagan deb hisoblanadi. Bunda Bank Qonun talablariga muvofiq yangi tanlash o‘tkazishi yoxud elektron do‘kon (mazkur Siyosatning tegishli bandlarida belgilangan mezonlar doirasida) yoki auksion orqali xaridni amalga oshirishi mumkin.

93. E'londa tanlash o'tkaziladigan vaqt sifatida ko'rsatilgan vaqtda tanlash komissiyasi a'zolarining har biri o'z elektron raqamli imzosi bilan xaridlar portalining tegishli saytiga kirgan holda, Texnik topshiriq talablari hamda ishtirokchilar tomonidan taqdim etilgan hujjatlarni ko'rib chiqib, tekshirib, hamda o'rganib chiqqan holda tanlash ishtirokchilari tomonidan berilgan elektron takliflarni baholaydi. Ishtirokchilarning takliflari xarid komissiyasi tomonidan ko'rib chiqiladi va muhokama qilinadi. Komissiya raisi zarur hollarda tegishli mutaxassislardan iborat ishchi gurux komissiyasi tuzishga haqli. Tanlash bo'yicha xarid qilish hujjatlari talablariga mos kelmaydigan takliflar xarid komissiyasi tomonidan rad etiladi va baholanmaydi. Tanlashni o'tkazishda ishtirokchilarning boshlang'ich narxdan yuqori bo'lgan narx bo'yicha takliflari xarid komissiyasi tomonidan rad etiladi va baholanmaydi.

94. Agar Xarid komissiyasi tomonidan ishtirokchilardan tanlash bo'yicha xarid qilish hujjatlarida ko'rsatilgan talablarga javob beradigan kamida ikkita taklif olingan bo'lsa, tanlash o'tkazilgan deb hisoblanadi.

95. Ishtirokchilarning barcha takliflari tanlash bo'yicha bank tomonidan xarid qilish hujjatlarida ko'rsatilgan mezonlar asosida baholanadi va tanlash o'tkazish bayonnomasida elektron qayd etiladi.

96. Tanlash ishtirokchilarining takliflarini ko'rib chiqish va baholash muddati takliflar berish tugagan paytdan e'tiboran o'n ish kunidan oshishi mumkin emas.

97. Ishtirokchilarning takliflarini baholash ikki bosqichda amalga oshirilishi mumkin.

98. Tanlashni o'tkazish natijalari bo'yicha **kontragentlarni tekshirish** o'tkaziladi.

99. Xarid jarayonlari ishtirokchilarini tekshirishning maqsadlari quyidagilardan iborat:

- a) Bank xodimlarining manfaatlar to'qnashuvi va shaxsiy manfaatdorligi bilan bog'liq bo'lgan korrupsiyaviy xatarlarni kamaytirish;
- b) insofsiz ijrosi bilan shartnoma tuzish xatarini kamaytirish;
- c) xarid jarayoni ishtirokchisining shartnomada belgilangan tovarlarni yetkazib berish yoki xizmat ko'rsatish, ishlarni bajarish imkoniyatini baholash;

100. Kontragentlarni tekshirish uchun xaridlar boshqarmasi, tashabbuskor tarkibiy bo'linma xodimlari ishtirokida tender/tanlov natijasi bo'yicha xulosani Komplaens nazorat departamentiga taqdim qiladi Komplaens nazorat departamenti kontragentlarni tekshirish xulosasiga asosan hisobotni Xarid komissiyasiga taqdim etadi.

101. Xulosa xaridlar boshqarmasi xodimi hamda tashabbuskor tarkibiy bo'linma mas'ul xodimlari tomonidan tasdiqlanadi.

## 5-§. Tanlash g'olibini aniqlash

102. Takliflarni taqqoslash natijalariga ko'ra xarid komissiyasi tanlash g'olibini aniqlaydi. Bunda tashabbuskor bo'linmaning ma'sul xodimi kelib tushgan takliflar bo'yicha bank tomonidan ishlab chiqilgan texnik topshiriqnomaga mosligi bo'yicha birma-bir baholash xulosasi taqdim etishi shart. Ushbu xulosa tanlash o'tkazish natijalari bayonnomasining va tuzilishi kutilayotgan shartnomaning ajralmas qismi hisoblanib, Bankning **Xaridlar boshqarmasiga** ham taqdim etiladi, bankning xaridlar bo'yicha ma'sul xodim ushbu xulosa asosida takliflarni baxolaydi.

103. Xarid komissiyasining qarori bilan tanlash bo'yicha xarid qilish hujjatlarida va taklifda ko'rsatilgan mezonlarga muvofiq g'olibning taklifidan keyingi eng maqbul taklifni taqdim etgan ishtirokchi sifatida e'tirof etilgan zaxiradagi g'olib aniqlanishi mumkin.

**104.** Agar ikki ish kuni ichida tanlash ishtirokchilari tomonidan tanlash o'tkazish natijalari bo'yicha e'tirozlar kelib tushmagan bo'lsa, bank va xarid komissiyasi tomonidan g'olib deb topilgan ishtirokchi o'rtasida shartnomalar tarzda tuziladi.

**105.** Muhokama uchun belgilangan muddat tugaganidan keyin kelib tushgan e'tirozlar Xarid komissiyasi tomonidan ko'rib chiqilmaydi.

**106.** Tanlash ishtirokchilari tomonidan tanlash o'tkazish natijalari bo'yicha e'tirozlar kelib tushganda, Xarid komissiyasi e'tirozlarni ko'rib chiqadi va tegishli qaror qabul qiladi.

**107.** Bank tomonidan Xarid komissiyasiga taqdim etilgan muhokama natijalari to'g'risidagi axborot asosida xarid komissiyasining tegishli majlisi bayonnomasi rasmiylashtiriladi va imzolangan kundan boshlab uch ish kuni ichida davlat xaridlarining elektron tizimiga joylashtiriladi.

**108.** Tanlash yakunlanib shartnoma bo'yicha to'lovlar to'liq amalga oshirilgandan so'ng **5 kun davomida** tashabbuskor bo'linma tomonidan barcha hujjatlar nusxasi (shartnoma, farmoyish, hisob-fakturalar va boshqalar) **Xaridlar boshqarmasiga** maxsus axborot portaliga elektron ravishda kiritish maqsadida taqdim etilishi shart.

**109.** Tanlash natijalari bo'yicha tuzilgan shartnoma to'g'risidagi axborot **Xaridlar boshqarmasi** tomonidan maxsus axborot portaliga shartnoma tashabbuskor bo'linma tomonidan taqdim etilgan kundan boshlab besh ish kunidan kechiktirmay joylashtiriladi.

## **6-§. Tanlash natijalarini rasmiylashtirish**

**110.** Tanlash natijalariga doir shartnomalar, tanlash bo'yicha xarid qilish hujjatlarida, eng yaxshi taklif taqdim etgan ishtirokchi bilan bank o'rtasidagi shartnoma eng yaxshi taklifda nazarda tutilgan shartlar asosida tuziladi.

**111.** Bank tomonidan tanlash bo'yicha xarid qilish hujjatlarida g'olib shartnomaning shartlari bajarilishi ta'minotini taqdim etganidan keyin shartnoma tuzilishini nazarda tutuvchi shart qo'yilishi mumkin.

G'olib shartnoma tuzishni rad etgan taqdirda unga zakalat summasi qaytarib berilmaydi. Agar xarid komissiyasi tomonidan zaxiradagi g'olib aniqlangan bo'lsa, shartnoma tuzish va unga doir majburiyatlarni bajarish huquqi zaxiradagi g'olibga o'tadi. Bunda zaxiradagi g'olib, g'olib tomonidan taklif etilgan narx bo'yicha (bundan zaxiradagi g'olib taklif etgan narx g'olib tomonidan taklif etilgan narxdan past bo'lgan hollar mustasno) shartnoma tuzadi yoki shartnoma tuzishni rad etishi mumkin.

**112.** Agar xarid komissiyasi tomonidan zaxiradagi g'olib aniqlanmagan bo'lsa yoki zaxiradagi g'olib shartnoma tuzishni rad etgan bo'lsa, bank Qonun talablariga muvofiq yangi tanlash o'tkazishi yoxud elektron do'kon (Mazkur siyosatning tegishli bandilarida belgilangan mezonlar doirasida) yoki auksion orqali xaridni amalga oshirishi mumkin.

**113.** Tanlash natijalari bo'yicha tuzilgan shartnoma tashabbuskor departamentlar tomonidan 5 ish kunidan kechiktirmasdan Xaridlar boshqarmasiga taqdim etilishi shart. Tanlash natijalari bo'yicha tuzilgan shartnoma to'g'risidagi axborot davlat buyurtmachisi tomonidan maxsus axborot portaliga u tuzilgan kundan boshlab besh ish kunidan kechiktirmay joylashtiriladi.

## **8-bob. Tender o‘tkazilishi tartibi**

### **1-§. Tender o‘tkazish mezonlari**

**114.** Tender vositasidagi bank xaridlari quyidagi shartlar bir vaqtning o‘zida bajarilgan taqdirda amalga oshiriladi:

g‘olibni aniqlash mezonlari tovarlar, ishlar-xizmatlarning nafaqat pul bilan baholanishini, balki miqdoriy va sifat jihatidan baholanishini ham o‘z ichiga oladi;

tovarlar, ishlar-xizmatlarning qiymati bir shartnoma bo‘yicha bazaviy hisoblash miqdorining yigirma besh ming baravaridan ortiq miqdorni tashkil etadi.

**115.** Tender majburiy tartibda elektron shaklda o‘tkaziladi, bundan qonunchilikda nazarda tutilgan hollar mustasno.

### **2-§. Tenderni o‘tkazish bo‘yicha xarid komissiyasi**

**116.** Tender o‘tkazish orqali amalga oshirish uchun kamida yetti nafar a‘zodan iborat tarkibda xarid komissiyasi tuziladi. Bunda, har bir o‘tkazilishi kerak bo‘lgan tender uchun Bank Boshqaruvi Raisi buyrug‘i bilan Xarid komissiyasi tasdiqlanadi.

**117.** Shartnomani bajarishning eng yaxshi shartlari tender ishtirokchilarining takliflarini baholash bo‘yicha e‘lon qilingan mezonlar asosida tender komissiyasi tomonidan aniqlanadi.

**118.** Agar majlisda tender komissiyasi a‘zolari umumiy sonining kamida uchdan ikki qismi hozir bo‘lsa, tender komissiyasi vakolatli hisoblanadi. Barcha qabul qilingan qarorlar bayonnomalar bilan rasmiylashtirilishi kerak.

### **3-§. Tender o‘tkazilishi to‘g‘risidagi e‘lon**

**119.** Bank ehtiyoji uchun tovarlar, ishlar-xizmatlarning tender asosida xarid qilinganda tashabbuskor bo‘linma yoki bank tasarufidagi bank xizmatlari markazilar tomonidan tender hujjatlarining, shartnoma, tender talablari bo‘yicha zaruriy xujjatlar va tender o‘tkazish haqidagi e‘lonning matni ishlab chiqilib, Bosh bank tender xarid komissiyasi raisiga bildirishnoma kiritadi. Bankning Xaridlar boshqarmasi (bank bank xizmatlari markazi) tomonidan tovarlar, ishlar-xizmatlarni tender orqali xarid qilish bo‘yicha tegishli barcha hujjatlar maxsus axborot portali (*exarid.uzex.uz, xt-xarid.uz yoki etender.uzex.uz, ebirja.uz/uz*) ga joylashtiriladi. Tender o‘tkazish orqali xaridlar Bosh bankda hamda bank xizmatlari markazilarda o‘tkaziladi. Bank xizmatlari markazilarda o‘tkaziladigan tenderlarda, tender komissiyasi tarkibiga Bosh bankdan vakil kiritilishi shart.

**120.** Tender vositasidagi bank xaridi to‘g‘risidagi axborot bank tomonidan cheklanmagan miqdordagi shaxslarga maxsus axborot portali orqali davlat xaridlarining elektron tizimiga, shuningdek bankning xohishiga ko‘ra uning veb-saytiga yoki uning yuqori turuvchi organining rasmiy veb-saytiga, shuningdek ommaviy axborot vositalarida tender o‘tkazilishi to‘g‘risidagi e‘lonni va tender bo‘yicha xarid qilish hujjatlarini joylashtirish yo‘li bilan ma‘lum qilinadi.

**121.** Tender o‘tkazilishi to‘g‘risidagi e‘lon faqat tender bo‘yicha xarid qilish hujjatlarini yuzasidan Kompleks ekspertiza qilish markazining ijobiy xulosasi olinganidan keyin joylashtiriladi.

**122.** Tender o‘tkazilishi to‘g‘risidagi e‘lon tender ishtirokchilaridan takliflarni qabul qilish muddati tugaydigan sanadan kamida o‘n ikki ish kuni va ko‘pi bilan o‘ttiz ish kuni oldin maxsus axborot portali orqali davlat xaridlarining elektron tizimiga bank tomonidan joylashtiriladi.

**123.** Tender o‘tkazilishi to‘g‘risidagi e‘lon quyidagi axborotni o‘z ichiga olishi kerak:

- 1) tenderni o‘tkazish shakli;
- 2) tovar, ish-xizmatning batafsil tavsifi va boshlang‘ich narxi;
- 3) tender bo‘lib o‘tadigan vaqti va murojaat manzili;
- 4) tender ishtirokchilariga qo‘yiladigan talablar;
- 5) Bankning ishtirokchilar bilan bog‘lanish uchun aloqa bog‘lovchi shaxslar sifatida belgilangan bir yoki bir nechta mansabdor shaxslarining yoki boshqa xodimlarining familiyasi, ismi, sharifi, lavozimi, telefon raqami va manzili;
- 6) takliflar berish muddati tugaydigan sana va vaqt;
- 7) tender taklifini rasmiylashtirishga doir talablar.

**124.** Tender o‘tkazish to‘g‘risidagi e‘lon qonunchilikka zid bo‘lmagan boshqa axborotni ham o‘z ichiga olishi mumkin.

#### **4-§. Tender bo‘yicha xarid qilish hujjatlari**

**125.** Tender bo‘yicha xarid qilish hujjatlari maxsus axborot portali orqali davlat xaridlarining elektron tizimiga tender o‘tkazilishi to‘g‘risidagi e‘lonni joylashtirish bilan bir vaqtda bank tomonidan joylashtiriladi.

**126.** Tender bo‘yicha xarid qilish hujjatlari quyidagilarni o‘z ichiga olishi kerak:

- a) tender o‘tkazilishi to‘g‘risidagi e‘londa ko‘rsatilgan axborot;
- b) shartnoma bahosini va ijrochilar bilan hisob-kitoblarni shakllantirish uchun foydalaniladigan valyuta hamda to‘lov tartibi haqidagi axborot;
- c) tender ishtirokchisi taklifining texnik va narxga oid qismi, ularni baholash tartibi haqidagi axborot;
- d) tender ishtirokchilariga tender bo‘yicha xarid qilish hujjatlari qoidalariga doir tushuntirishlarni taqdim etish tartibi, taqdim etish muddati boshlanadigan va tugaydigan sana;
- e) texnik topshiriq;
- f) Qonunga muvofiq tender ishtirokchilarining takliflarini baholash mezonlari va ko‘rib chiqish tartibi;
- g) tender ishtirokchilari tomonidan korrupsiya ko‘rinishlariga yo‘l qo‘ymaslik bo‘yicha arizani taqdim etish majburiyligi haqidagi talab.

**127.** Tender bo‘yicha xarid qilish hujjatlarida bank har bir tovar, ish-xizmatning xarid qilish tartib-taomilining alohida birligi sifatida ko‘rib chiqilishini e‘lon qilishi mumkin. Bunday holda bank turli tovarlar, ishlar-xizmatlarni yetkazib berish uchun tenderning bir nechta ishtirokchisi bilan shartnomalar tuzishi mumkin, bunda har bir tovar, ish-xizmat uchun faqat bitta g‘olib aniqlanishi mumkin. Har bir tovar, ish-xizmat uchun g‘olib xarid qilish tartib-taomili shartlariga ko‘ra alohida-alohida aniqlanadi.

**128.** Tender bo‘yicha xarid qilish hujjatlariga uning ajralmas qismi bo‘lgan shartnoma loyihasi ilova qilinadi.

**129.** Bank xarid komissiyasi bilan kelishilgan tender bo‘yicha xarid qilish hujjatlarini tasdiqlaydi.

**130.** Bank xarid komissiyasi bilan kelishilgan holda tenderda ishtirok etish uchun takliflar berish muddati tugaydigan sanadan kamida bir ish kuni oldin tender bo'yicha xarid qilish hujjatlariga o'zgartishlar kiritish to'g'risida qaror qabul qilishga haqli. Bunda ushbu tenderda takliflar berish tugaydigan muddat kamida o'n ish kuniga uzaytiriladi. Shu bilan bir vaqtda, agar e'londa ko'rsatilgan axborot o'zgartirilgan bo'lsa, tender o'tkazish to'g'risidagi e'longa o'zgartishlar kiritiladi. Tovar, ish-xizmatning nomini o'zgartirishga yo'l qo'yilmaydi.

**131.** Tender ishtirokchisi bankga tender bo'yicha xarid qilish hujjatlari qoidalariga doir tushuntirishlar berish to'g'risida so'rov yuborishga haqli. Mazkur so'rov kelib tushgan sanadan e'tiboran ikki ish kuni ichida bank, agar ushbu so'rov bankga takliflar berish muddati tugaydigan sanadan kamida ikki ish kuni oldin kelib tushgan bo'lsa, tender bo'yicha xarid qilish hujjatlarining qoidalariga doir tushuntirishlarni yuboradi. Tender bo'yicha xarid qilish hujjatlarining qoidalariga doir tushuntirishlar ularning mazmun-mohiyatini o'zgartirmasligi kerak.

**132.** Tender bo'yicha xarid qilish hujjatlari qonunchilikda belgilangan tartibda ekspertiza uchun Kompleks ekspertiza qilish markaziga kiritiladi.

**133.** Bank tuzilgan shartnomalar, import kontraktlari va ularga qo'shimcha kelishuvlarning xarid qilish hujjatlariga muvofiqligi va haqiqiyliги uchun javobgar bo'ladi.

#### **5-§. Tender ishtirokchilarining takliflarini berish tartibi**

**134.** Tender ishtirokchilarining takliflari elektron shaklda beriladi, bunda e'londa va tender bo'yicha xarid qilish hujjatlarida belgilangan tartibda tender o'tkazish to'g'risidagi e'londa ko'rsatilgan muddatlarda avval elektron tarzda tender ishtirokchilari tomonidan korrupsiya ko'rinishlariga yo'l qo'yimaslik bo'yicha ariza taqdim etilib keyin takliflar taqdim etiladi.

**135.** Tender ishtirokchilarining takliflari bank tomonidan belgilangan shartlarga mos ravishda muhr qo'yilgan va ishtirokchining vakolatli shaxsining imzosi bilan tasdiqlangan va takliflarning har bir varag'i imzolangan holda taqdim etish tavsiya etiladi.

**136.** Tender ishtirokchilarining takliflari e'londa belgilangan tartib asosida tender o'tkazish to'g'risidagi e'londagi vaqtda taqdim etiladi, unda:

a) bank shartlariga muvofiq texnik taklif (shu jumladan, texnik, moliyaviy, moddiy, kadrlar resurslarining hamda boshqa resurslarning mavjudligi oid ma'lumotlar);

b) bank shartlariga muvofiq narxga oid taklif bo'lishi kerak.

**137.** Elektron shaklda tender o'tkazish chog'ida ishtirokchilarining elektron takliflari berish tartibi Bank Xarid komissiyasi tomonidan belgilanadi.

**138.** Taklifda davlat xaridi obyektini bo'lgan tovarning eskizi, rasmi, chizmasi, fotosurati va boshqa tasviri, nusxasi, namunasi bo'lishi mumkin.

**139.** Tanlash ishtirokchisi taqdim etilayotgan axborot va hujjatlarning haqiqiyliги va to'g'riligi uchun javobgar bo'ladi.

**140.** Tender ishtirokchisi faqat bitta taklif berishga haqli.

**141.** Tender uchun takliflarni qabul qilish maxsus axborot portali orqali davlat xaridlarining elektron tizimida chop etilgan e'londa ko'rsatilgan muddat kelishi bilan tugatiladi.

**142.** Ishtirokchi va uning affillangan shaxsi elektron do'kon, kichik qiymatli xaridning soddalashtirilgan tartib-taomili, auksion, eng yaxshi takliflarni tanlash, tender va ikki bosqichli davlat xaridlari bo'yicha ayni bitta lotda ishtirok etish huquqiga ega emas.

**143.** Agar takliflar berish muddati tugagan vaqtda tender ishtirokchilaridan kamida ikkita taklif olingan bo'lsa, tender ishtirokchilarining takliflari xarid komissiyasi tomonidan ko'rib chiqiladi.

**144.** Tenderda bitta ishtirokchi ishtirok etgan yoki hech kim ishtirok etmagan bo'lsa, tender o'tkazilmagan deb topiladi. Bunday holda bank xarid qilish tartib-taomilini ayni o'sha shartlarda hamda tovar, ish-xizmatga doir ayni o'sha mezonlarga va talablarga muvofiq takroran amalga oshirishi shart. Tovarga, ish-xizmatga doir baholash shartlari, mezonlari va talablarni o'zgartirish zarur bo'lganda, xarid komissiyasi asoslarni ko'rsatgan holda tegishli qarorni qabul qiladi. Tender ishtirokchisi bunday takliflarni berish muddati tugaguniga qadar berilgan taklifni qaytarib olishga yoki unga o'zgartishlar kiritishga haqli.

## **6-§. Tender ishtirokchilarining takliflarini ko'rib chiqish va baholash**

**145.** Tender ishtirokchilarining takliflarini ko'rib chiqish va baholash muddati takliflar berish tugagan paytdan e'tiboran qirq besh ish kunidan oshishi mumkin emas.

**146.** Agar taklif Qonun va tender bo'yicha xarid qilish hujjatlarining talablariga muvofiq kelsa, u tegishli tarzda rasmiylashtirilgan deb topiladi.

**147.** Agar taklifni kiritgan tender ishtirokchisi ushbu Qonunda belgilangan talablarga mos kelmasa yoki tender ishtirokchisining taklifi tegishli tarzda rasmiylashtirilmagan bo'lsa, shuningdek tender bo'yicha xarid qilish hujjatlari talablariga muvofiq kelmasa, xarid komissiyasi taklifni rad etadi.

**148.** E'londa tender o'tkazish vaqti sifatida ko'rsatilgan vaqtda xarid komissiyasi tender ishtirokchilari tomonidan taqdim etilgan takliflar bo'yicha o'tkazilayotgan xabarnoma yuborilishini va davlat xaridlarining elektron tizimiga joylashtirilishini ta'minlaydi. Bunda dastlabki belgilangan vaqt va keyingi vaqt oralig'idagi muddat besh ish kunidan oshmasligi kerak.

**149.** Zaruriy hollarda tender takliflarini ko'rib chiqish jarayoni vaqtida bank tomonidan videoyozuv amalga oshiriladi hamda tender jarayonida ishtirokchilarning taqdim etgan barcha hujjatlari va tijorat taklifining narxi o'qib eshittiriladi.

**150.** Tender ishtirokchisi tomonidan taqdim etilgan hujjatlardagi axborotning ishonchsiz ekanligi aniqlangan taqdirda, xarid komissiyasi bunday ishtirokchini xarid qilish tartib-taomilining istalgan bosqichida tenderda ishtirok etishdan chetlatishga haqli.

**151.** Tender bo'yicha xarid qilish hujjatlarida ko'rsatilgan mezonlar asosida tender g'olibini aniqlash uchun xarid komissiyasi rad etilmagan takliflarni baholashni amalga oshiradi.

**152.** Birinchi bosqichda tender ishtirokchisi taklifining texnik qismini baholash amalga oshiriladi. Xarid komissiyasining tender taklifining texnik qismini baholash bo'yicha qarori bayonnoma bilan rasmiylashtiriladi, bayonnomada tenderning birinchi bosqichini baholash yakunlari ko'rsatiladi.

**153.** Tenderning ikkinchi bosqichi tenderning birinchi bosqichidan o'tgan kamida ikki nafar ishtirokchining takliflari mavjud bo'lganda o'tkaziladi.

**154.** Tenderning ikkinchi bosqichida taklifning narxga oid qismi ko'rib chiqiladi va baholanadi. Xarid komissiyasining tender taklifining narxga oid qismini baholash bo'yicha qarori bayonnoma bilan rasmiylashtiriladi, bayonnomada tenderning ikkinchi bosqichi g'olibi aniqlanadi. Takliflarni taqqoslash natijalariga ko'ra xarid komissiyasi tender g'olibini aniqlaydi. Bunda tashabbuskor bo'linmaning ma'sul xodimi kelib tushgan takliflarni bank tomonidan ishlab

chiqilgan texnik topshiriqnomaga va shartlarga mosligi bo'yicha birma-bir baholash xulosasi taqdim etishi shart. Ushbu hulosaga tender o'tkazish natijalari bayonnomasining va tuzilishi kutilayotgan shartnomaning ajralmas qismi hisoblanib, **Xaridlar boshqarmasiga** ham taqdim etiladi, bankning xaridlar bo'yicha ma'sul xodim ushbu xulosa asosida takliflarni baxolaydi.

**155.** Takliflarni ko'rib chiqish natijalari bo'yicha:

- 1) **birinchi bosqichda** — agar xarid komissiyasi barcha takliflarni rad etgan bo'lsa yoki faqat bitta taklif tender bo'yicha xarid qilish hujjatlari talablariga muvofiq kelsa;
- 2) **ikkinchi bosqichda** — agar xarid komissiyasi barcha takliflarni rad etgan bo'lsa, tender o'tkazilmagan deb topiladi.

**156.** Xarid qilinayotgan tovarning, ish-xizmatning texnik xususiyatlaridan kelib chiqib, tender bir bosqichda o'tkazilishi mumkin. Bunda bank bu haqda tender bo'yicha xarid qilish hujjatlarida ko'rsatishi kerak. Mazkur holatda tender taklifining texnik va narxga oid qismlarini baholash bir vaqtning o'zida amalga oshiriladi.

**157.** Tender bir bosqichda o'tkazilganda, agar xarid komissiyasi barcha takliflarni rad etgan bo'lsa yoki faqat bitta taklif tender bo'yicha xarid qilish hujjatlari talablariga muvofiq kelsa, tender o'tkazilmagan deb topiladi.

**158.** Tender bo'yicha xarid qilish hujjatlarida va taklifda ko'rsatilgan mezonlar asosida shartnomani bajarishning eng yaxshi shartlarini taklif qilgan tender ishtirokchisi g'olib deb topiladi.

**159.** Tender bo'yicha xarid qilish hujjatlarida va taklifda ko'rsatilgan mezonlarga muvofiq g'olibning taklifidan keyingi eng maqbul taklifni taqdim etgan deb topilgan ishtirokchi xarid komissiyasining qarori bilan zaxiradagi g'olib deb belgilanishi mumkin.

**160.** Agar tender bo'yicha xarid qilish hujjatlarida tenderning har bir tovar, ish-xizmat xarid qilish tartib-taomilining alohida birligi sifatida ko'rib chiqilishi nazarda tutilgan bo'lsa, xarid komissiyasi g'olibni tenderning har bir predmeti bo'yicha aniqlaydi.

**161.** Takliflarni ko'rib chiqish va baholash natijalari takliflarni ko'rib chiqish hamda baholash bayonnomasida qayd etiladi.

**162.** Takliflarni ko'rib chiqish va baholash bayonnomasida quyidagi axborot bo'lishi kerak:

- a) tender takliflari ko'rib chiqiladigan hamda baholanadigan sana va vaqt to'g'risidagi;
- b) hozir bo'lgan xarid komissiyasi a'zolarining va tender ishtirokchilari vakolatli vakillarining tarkibi haqidagi;
- c) takliflari ko'rib chiqilgan tender ishtirokchilari to'g'risidagi;
- d) takliflari ularni rad etishning aniq sabablari ko'rsatilgan holda rad etilgan tender ishtirokchilari haqidagi;
- e) tender g'olibi to'g'risida qabul qilingan qaror haqidagi;
- f) tender g'olibining nomi (yuridik shaxs uchun), familiyasi, ismi, otasining ismi (jismoniy shaxs uchun), turgan joyi (pochta manzili).

**163.** Tender bosqichlarida takliflarni ko'rib chiqish va baholash bayonnomasi xarid komissiyasining hozir bo'lgan barcha a'zolari elektron raqamli imzosi bilan imzolandi hamda zarur hollarda undan olingan ko'chirma bayonnomaga imzolangan kundan e'tiboran uch ish kuni ichida davlat xaridlarining elektron tizimida e'lon qilinadi.

**164.** Tenderning istalgan ishtirokchisi takliflarni ko'rib chiqish va baholash bayonnomasi e'lon qilinganidan keyin bankga tender natijalari bo'yicha tushuntirishlarni taqdim etish

to'g'risida so'rov yuborishga haqli. Bank bunday so'rov kelib tushgan sanadan e'tiboran uch ish kuni ichida tender ishtirokchisiga tegishli tushuntirishlarni taqdim etadi.

**165.** Bank va xarid komissiyasi takliflarni qabul qilish tugaydigan paytga qadar ularni muhokama qilishga haqli emas.

### **7-§. Tender natijalari bo'yicha shartnoma tuzish**

**166.** Tender natijalari bo'yicha shartnoma tender bo'yicha xarid qilish hujjatlarida va shartnoma tuzilayotgan tender ishtirokchisi tomonidan berilgan taklifda ko'rsatilgan shartlar asosida tuziladi.

**167.** G'olib shartnoma tuzishdan bosh tortgan taqdirda unga zakalat summasi qaytarib berilmaydi. Agar xarid komissiyasi tomonidan zaxiradagi g'olib aniqlangan bo'lsa, shartnoma tuzish va unga doir majburiyatlarni bajarish huquqi zaxiradagi g'olibga o'tadi. Bunda zaxiradagi g'olib g'olib tomonidan taklif etilgan narxda (bundan zaxiradagi g'olib taklif etgan narx g'olib tomonidan taklif etilgan narxdan past bo'lgan hollar mustasno) shartnoma tuzadi yoki shartnoma tuzishdan bosh tortishi mumkin. Agar xarid komissiyasi tomonidan zaxiradagi g'olib aniqlanmagan bo'lsa yoki zaxiradagi g'olib shartnoma tuzishdan bosh tortsa, bank yangi tender o'tkazadi.

**168.** Zarur hollarda tender natijalari bo'yicha tuzilgan shartnoma to'g'risidagi axborot **Xaridlar boshqarmasi** (bank bank xizmatlari markazi) tomonidan maxsus axborot portaliga u tuzilgan sanadan boshlab uch ish kunidan kechiktirmay joylashtiriladi.

### **9-bob. Birgalikdagi davlat xaridlari**

**169.** Tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) birgalikdagi davlat xaridlarini shakllantirish ikki va undan ortiq davlat buyurtmachisining davlat xaridlari reja-jadvallariga ko'ra amalga oshiriladi.

**170.** Birgalikdagi davlat xaridlari natijalari bo'yicha tuzilgan shartnomalar to'g'risidagi axborot davlat buyurtmachilari tomonidan maxsus axborot portaliga shartnomalar tuzilgan sanadan e'tiboran besh ish kunidan kechiktirmay joylashtiriladi.

### **10-bob. Markazlashgan davlat xaridlari**

**171.** Davlat xaridlari uchun ajratilgan mablag'lardan samarali foydalanish maqsadida bir nechta davlat buyurtmachisi ayni bir turdagi tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) markazlashgan xaridini markazlashgan xarid organi orqali amalga oshirishi mumkin.

**172.** Markazlashgan xarid organi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan, shu jumladan davlat buyurtmachisining tarkibidagi tashkilotlardan belgilanadigan yuridik shaxsdir.

**173.** Markazlashgan davlat xaridlarini amalga oshirish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

## **11-bob Hadli kelishuv**

**174.** Davlat buyurtmachisi eng yaxshi takliflarni tanlash yoki tender natijalari bo'yicha aniqlanadigan bir nechta g'olib bilan bir yildan uch yilgacha bo'lgan muddatga hadli kelishuv tuzishi mumkin.

**175.** Davlat buyurtmachisi xarid qilish hujjatlarida hadli kelishuvni tuzish shartlarini, shuningdek hadli kelishuvning amal qilish muddati davomida davlat buyurtmachisining kutilayotgan ehtiyojlaridan kelib chiqib, tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) umumiy hajmini ko'rsatadi. Bunda davlat buyurtmachisi hadli kelishuvda ko'rsatilgan to'liq summa uchun shartnoma tuzishga majbur emas.

**176.** Hadli kelishuvni tuzish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

## **12-bob. Kichik qiymatli xaridning soddalashtirilgan tartib-taomili**

**177.** Summasi bir shartnoma bo'yicha bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravari miqdoridan oshmaydigan (budjet buyurtmachilari uchun bazaviy hisoblash miqdorining yigirma besh baravari miqdoridan oshmaydigan) davlat xaridlari xarid komissiyasining ishtirokisiz o'tkazilishi mumkin, biroq bir moliya yilida bir korporativ buyurtmachi uchun bazaviy hisoblash miqdorining bir ming baravari miqdoridan oshmasligi va bir moliya yilida bir budjet buyurtmachisi uchun bazaviy hisoblash miqdorining besh yuz baravari miqdoridan oshmasligi kerak. Bunda g'olib davlat xaridlari o'tkazilishi to'g'risidagi e'lon joylashtirilmagan holda, ochiq axborot manbalaridan olingan narxlarni solishtirish yo'li bilan yoki tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) kamida uchta potensial yetkazib beruvchilaridan narxlarni so'rash yo'li bilan davlat buyurtmachisi tomonidan aniqlanadi.

## **13-bob. To'g'ridan-to'g'ri shartnomalar bo'yicha davlat xaridlarini amalga oshirish tartibi**

**178.** To'g'ridan-to'g'ri shartnomalar bo'yicha davlat xaridlari quyidagi hollarda amalga oshirilishi mumkin:

1) Bank ushbu siyosatning nazarda tutilgan davlat xaridlarini amalga oshirish chog'ida xarid qilish tartib-taomillarining boshqa raqobatli turlaridan ham Qonun talablariga muvofiq foydalanishi mumkin.

2) O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 22.04.2021-yildagi O'RQ-684-son qonunga muvofiq tovarlar, ishlar-xizmatlar to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar bo'yicha xarid qilinadi:

**179.** To'g'ridan-to'g'ri shartnomalarni tuzilishi uchun yuridik xizmat departamenti tomonidan tekshiriladi. Qonunchilikka muvofiq tuzilganligi uchun, Tashabbuskor tarkibiy bo'linma, yuridik xizmat departamenti, Buxgalteriya hisobi departamenti javobgardir. Bunda bank to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar tuzilganligi to'g'risidagi axborotni tashabbuskor bo'linma tomonidan 5 ish kunida Xaridlar boshqarmasiga taqdim etishi shart taqdim etilgan shartnoma nusxasini Xaridlar boshqarmasi tomonidan maxsus axborot portaliga joylashtirishi shart. Xaridlar

boshqarmasiga to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar tuzilganligi to'g'risidagi axborotni va shartnoma nusxasini vaqtida taqdim etmaslik uchun barcha javobgarlik tashabbuskor tarkibiy bo'linma zimmasida.

**180.** Yuqoridagi tovarlar, ishlar-xizmatlarni keyinchalik ular to'g'risidagi ma'lumotlarni (to'g'ridan-to'g'ri imzolangan shartnomalar elektron nusxasi) tashabbuskor bo'linma shartnoma tuzilgan sanadan boshlab 5 kundan kechiktirmasdan **Xaridlar boshqarmasiga** (bank xizmatlari markazi tegishli tarkibiy bo'linma)ga taqdim etadi. Departament ma'sul xodimi (bank xizmatlari markazi tegishli tarkibiy bo'linma) Xaridlar boshqarmasi xodimi tashabbuskor bo'linma tomonidan taqdim etilgan kundan boshlab davlat xaridlarining maxsus axborot portaliga ushbu ma'lumotlarni 5 kundan kechiktirmay portalga joylashtirilishi lozim. O'z vaqtida Xaridlar boshqarmasiga taqdim etilmagan to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar uchun tashabbuskor tarkibiy bo'linma javobgardir.

**181.** To'g'ridan-to'g'ri shartnomalarni tuzilishi uchun yuridik xizmat departamenti tomonidan tekshiriladi. amaldagi qonunchilikka muvofiq to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar tuzish talablariga mos tuzilganligi uchun, Tashabbuskor tarkibiy bo'linma, yuridik xizmat departamenti, Buxgalteriya hisobi departamenti javobgardir.

**182.** Bank vakillik kartasi orqali xarid qilingan tovar (ish xizmatlar) bo'yicha barcha talablar vakillik kartani ishlatish tartibiga binoan amalga oshiriladi. Vakillik karta orqali tovar ish xizmatlar uchun vakillik karta ochilgan shaxs javobgardir. Nazorat qilish Buxgalteriya va Komplaens nazorat departamentlari zimmasiga yuklatiladi.

#### **14-bob Taklif so'rovi**

**183.** Davlat buyurtmachilari tomonidan "taklif so'rovi" orqali xarid qilinishi mumkin bo'lgan tovarlar (ishlar, xizmatlar) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 26 dekabrda "Davlat xaridlari tizimida raqobat muhiti va shaffoflikni ta'minlash bo'yicha navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-259-sonli farmoniga muvofiq amalga oshiriladi.

#### **15-bob Fuqarolik huquqiy shartnoma**

**184.** Buyurtmachilar tomonidan xodimlarni fuqarolik-huquqiy tusdagi shartnoma asosida jalb etishni va xalqaro reytinglarni olishni nazarda tutuvchi xarid qilish tartib-taomillarini elektron shaklda o'tkazish majburiy hisoblanmaydi.

1) Turonbank tomonidan xodimlarni fuqarolik-huquqiy tusdagi shartnoma asosida jalb etishni va xalqaro reytinglarni olishni nazarda tutuvchi xarid qilishda tashabbuskor (Xodimlarni boshqarish departamenti) tomonidan berilgan talab asosida tanlov hujjatlari elektron do'kon platformasiga joylashtiriladi. Hujjatlar tanlov muddati tugaganidan so'ng Xarid komissiyasiga taqdim etiladi. Xarid komissiyasi tomonidan ma'qul deb topilgan g'olib bilan "Turonbank" aksiyadorlik tijorat banki va fuqaro o'rtasida shartnoma tuziladi.

2) Tanlov natijalari bo'yicha g'olib deb topilgan fuqarolar bilan Xodimlarni boshqarish departamenti shartnoma imzolaydi

## **16-bob. Yagona yetkazib beruvchidan davlat xaridini amalga oshirish tartibi**

### **1-§. Yagona yetkazib beruvchidan davlat xaridining asosiy shartlari**

**185.** Qonunda belgilangan tartibda yagona yetkazib beruvchi deb topilgan va Yagona yetkazib beruvchilar reestriga kiritilgan tovarlar, ishlar-xizmatlar yetkazib beruvchisi yagona yetkazib beruvchidir.

**186.** Yagona yetkazib beruvchidan xarid quyidagi alohida hollarda amalga oshiriladi:

- 3) bozorda muqobillari bo‘lmagan va faqat yagona yetkazib beruvchidan olish mumkin bo‘lgan texnik jihatdan murakkab tovarlar, ishlar-xizmatlarning davlat xaridi;
- 4) madaniy qimmatliklarni olish;
- 5) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlarida yoki O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlarida yagona yetkazib beruvchi sifatida belgilangan subyektlardan xaridlar;
- 6) tabiiy monopoliya subyekti tovarlari, ishlari-xizmatlarining davlat xaridi.

### **2-§. Yagona yetkazib beruvchilar reestri**

**187.** Yagona yetkazib beruvchilar reestri vakolatli organ tomonidan maxsus axborot portalida yuritiladigan axborot resursidir.

**188.** Yagona yetkazib beruvchilar reestri yagona yetkazib beruvchidan davlat xaridini amalga oshirish uchun ruxsat etilgan tovarlar, ishlar-xizmatlar ro‘yxati va yagona yetkazib beruvchilar ro‘yxatidan iboratdir.

## **17-bob. Bank xaridlari jarayonidagi cheklovlar**

**189.** Xaridlar jarayonida quyidagilarga yo‘l qo‘yilmaydi:

- 1) agar tender va tanlashda ishtirokchining va (yoki) ushbu ishtirokchi vakolatli vakilining yaqin qarindoshlari ijrochini tanlash bo‘yicha qaror qabul qilish huquqiga ega bo‘lsa, shuningdek davlat buyurtmachisining yoki u tomonidan jalb etilgan ixtisoslashgan tashkilotning vakili bo‘lsa, ishtirokchining davlat xaridlarida ishtirok etishiga;
- 2) ishtirokchilarni kamsitishga, boshqa ishtirokchilarga zarar yetkazgan holda bir ishtirokchiga imtiyozlar yoki preferensiyalar taqdim etishga;
- 3) manfaatlar to‘qnashuviga;
- 4) Xaridlarni amalga oshirishning raqobatli bo‘lmagan usullarini qonunga xilof ravishda tanlashga, davlat xaridlari subyektlariga ta‘sir o‘tkazishga, davlat xaridlarida ishtirokchilarning ishtirok etishi to‘g‘risidagi axborotni oshkor etishga, ularning sonini asossiz ravishda cheklashga yoki ularning malakasiga qo‘yilgan talablarni oshirishga, raqobatga yo‘l qo‘ymaslikning, uni cheklashning yoki bartaraf etishning boshqa shakllariga;
- 5) xaridlarni o‘tkazilishi to‘g‘risidagi e‘lonning matniga ishtirokchilar o‘rtasida raqobatni cheklaydigan qonunga xilof talablarni kiritishga;
- 6) narxlarni yoki ishtirokchilarni saralash natijalarini buzib ko‘rsatish maqsadida ishtirokchilarning oldindan til biriktirishiga;

- 7) ishonchsiz yoki buzib ko'rsatilgan axborotni taqdim etishga yoki tarqatishga, shuningdek davlat xaridlari to'g'risidagi axborotdan foydalanishni asossiz ravishda cheklashga;
- 8) ishtirokchilarning sun'iy tarzda pasaytirilgan narxlar bo'yicha takliflar berishga, keyinchalik shartnomani imzolashni yoki uni tegishli tarzda bajarishni rad etishiga;
- 9) xarid tarkibiga texnologik va funksional jihatdan o'zaro bir-biri bilan bog'liq bo'lmagan tovarlar, ishlar-xizmatlarni kiritishga;
- 10) firibgarlik, soxtalashtirish va korrupsiyaning namoyon bo'lishiga;
- 11) moliyalashtirish manbalari va miqdorlari mavjudligi to'g'risida tasdiqlarga ega bo'lmagan yoki ajratilgan mablag'lar hajmidan ortiq miqdordagi davlat xaridlarini amalga oshirishga.

#### **Ishtirokchilarga qo'yiladigan talablar**

**190.** Ishtirokchilar quyidagi mezonlarga muvofiq bo'lishi kerak:

- a) shartnomani bajarish uchun zarur texnik, moliyaviy, moddiy, kadrlar resurslarining hamda boshqa resurslarning mavjudligi;
- b) shartnoma tuzish uchun qonuniy huquqqa egalik;
- c) soliqlar va yig'imlarni to'lash bo'yicha muddati o'tgan qarzdorlikning mavjud emasligi;
- d) o'ziga nisbatan joriy etilgan bankrotlik tartib-taomillarining mavjud emasligi;
- e) Insofsiz ijrochilarning yagona reestrda qayd etilmaganligi.
- f) O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Majburiy ijro byurosining ma'lumotlar bazalarida ishtirokchining sud qarorlari bo'yicha bajarilmagan majburiyatlari mavjud emasligi.

### **18- bob. Xarid qilish tartib-taomillarini monitoring va nazorat qilish**

**191.** Xaridlar sohasidagi monitoring "Davlat xaridlari to'g'risida"gi qonunchilik hujjatlariga rioya etilishini, xaridlarning belgilangan maqsadlari, prinsiplari va cheklovlari amalga oshirilishini xaridlarning o'tkazilishi haqidagi axborotni to'plash, umumlashtirish, tizimlashtirish va baholash orqali doimiy asosda kuzatish tizimidir.

**192.** Bank tizimida xaridlar sohasidagi nazorat mazkur sohadagi qonunchilik talablari buzilishining oldini olish, uni aniqlash va unga chek qo'yishga qaratilgan chora-tadbirlar tizimidir.

**193.** Qonunchilikda belgilangan tartibda statistik va boshqa axborotlarni, tegishli ma'lumotlar va hisobotlarni taqqoslash hamda tahlil qilish orqali amalga oshiriladigan tekshirishlar Bank tizimida xaridlar to'g'risidagi qonunchilik hujjatlariga rioya etilishi ustidan nazorat qilishning asosiy shaklidir.

**194.** Bank tizimida xarid qilish tartib-taomillariga, ushbu Siyosat talablariga rioya etilishi ustidan monitoring va nazorat belgilangan tartibda bank Boshqaruvi, Komplayens nazorat, Yuridik xizmat, Buxgalteriya departamenti hamda nazorati Xarid komissiyasi tomonidan amalga oshiriladi.

**195.** Xaridlar bo'yicha amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar, Bankning ichki qoidalar talablariga, tartib-qoidalariga rioya qilish ustidan **joriy monitoring** Bankning **Xaridlar boshqarmasi** (Bank xizmatlari markazlarida mazkur vazifa yuklatilgan tegishli tarkibiy bo'linma) tomonidan amalga oshiriladi.

**196.** Xaridlar boshqarmasi Bank tizimida xaridlarini o'tkazish va Bankda amalga oshirilgan xaridlar to'g'risidagi axborotni to'plash, o'rganish, umumlashtirish, tizimlashtirish va baholash orqali **joriy monitoringni** amalga oshiradi.

**197.** Bank tizimida amalga oshirilgan xaridlar natijalari bo'yicha Xaridlar boshqarmasi qonunchilik hujjatlari va Bank ichki qoidalari talablariga muvofiq **tegishli ma'lumotlar va hisobotlarni** Bank boshqaruv organlariga taqdim qilib boradi.

**198.** Bank **Kuzatuv kengashi** Bank tizimida xaridlar sohasidagi nazoratni o'z vakolatlari doirasida:

1) Bank tizimida xaridlarni amalga oshirish va monitoring qilish bo'yicha mazkur Siyosatni tasdiqlaydi;

2) Bank ijrochi organi, ya'ni Bank Boshqaruvi tomonidan xaridlarni amalga oshirilishi ustidan normativ-huquqiy hujjatlari talablarida va Bank ichki qoidalarida belgilangan tartibda umumiy nazoratni amalga oshiradi;

3) Bank yillik Biznes-rejasi doirasida tovarlar (ishlar, xizmatlar) xarid qilish hajmini tasdiqlaydi

4) Bank Boshqaruvidan bankda amalga oshirilgan xaridlar to'g'risidagi ma'lumotlarni talab qilib oladi hamda taqdim etilgan ma'lumotlar asosida izohlar talab qiladi;

5) Bank iqtisodiy faoliyati ko'rsatkichlaridan kelib chiqib o'z vakolatlari doirasida Bank xaridlarini cheklaydi.

**199.** Bank **Boshqaruvi** Bank tizimida xaridlar sohasidagi nazoratni o'z vakolatlari doirasida:

a) amaldagi normativ-huquqiy hujjatlari talablariga muvofiq xaridlarni amalga oshirish va monitoring qilish bo'yicha mazkur Siyosatni ishlab chiqadi va ma'qullaydi hamda Bank "Xarid komissiyasining Nizomi"ni, xaridlar sohasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi boshqa ichki qoidalarini ishlab chiqadi va tasdiqlaydi;

b) Bankning vakolatli mas'ul xodimlari orasidan Bankning Xarid komissiyasini, tender va konkurs komissiyalarini shakllantiradi;

c) Xaridlar boshqamasidan (Bank xizmatlari markazlaridan) Bankda amalga oshirilgan xaridlar to'g'risidagi ma'lumotlarni talab qilib oladi;

d) amalga oshirilgan xaridlar narxlarini tekshiradi;

e) belgilangan tartibda xaridlarni cheklaydi hamda zarur hollarda xarid faoliyatini to'xtatib qo'yadi;

f) qonunchilikda belgilangan tartibda Bank tizimida xaridlar amalga oshirilishi yuzasidan Bank Kuzatuv kengashiga tegishli hisobot taqdim etib boradi;

g) xaridlar sohasida qonunchilik hujjatlari va Bank ichki qoidalari talablarining qo'pol buzilish holatlari bo'yicha aybdor shaxslarga nisbatan tegishli choralar ko'radi;

h) xaridlarni amalga oshirish jarayonlariga aralashgan Bank xodimlariga nisbatan shubhalar yoki salbiy holatlar to'g'risida xabar bergan xodimlarning samarali ijtimoiy himoyalaniishi, moddiy ta'minlanishi va rag'batlantirilishini ta'minlaydi.

**200.** Bankning **Ichki auditi departamenti** o'z vakolatlari doirasida:

1) tasdiqlangan yillik Biznes-reja doirasida amalga oshiriladigan davlat xaridlarining amalga oshirilishida amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar va Bank ichki qoidalar talablariga amal qilinishini tekshiradi;

1) xaridlar sohasida qonunchilik hujjatlari va Bank ichki qoidalari talablarining qo‘pol buzilish holatlari bo‘yicha bo‘yicha belgilangan tartibda Kuzatuv kengashiga xabar beradi.

2) Bankda amalga oshirilgan xaridlarni tekshiradi va monitoring qiladi;

3) Xaridlar boshqarmasi (Bank xizmatlari markazlarida mazkur vazifa yuklatilgan tegishli tarkibiy bo‘linma) dan ma‘lumotlarni so‘rab oladi.

**203.** Bankning **Xaridlar boshqarmasi va Xarid komissiyasi** o‘z vakolatlari doirasida quyidagilarni amalga oshiradi:

1) xaridlar sohasida amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar va Bank ichki qoidalari talablariga rioya qilinishi va lozim darajada bajarilishi bo‘yicha tegishli choralar ko‘radi;

2) tovarlar (ishlar, xizmatlar)ning xaridini amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar, mazkur Siyosatda ko‘rsatib o‘tilgan talablar, tartib-qoidalarga qat’iy amal qilgan holda amalga oshiradi;

3) xaridlarni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlardan kelib chiqib, Bank ichki qoidalariga zarur to‘g‘rilashlarni ishlab chiqadi va Bank Boshqaruvi va Kuzatuv kengashiga tasdiqlash uchun kiritadi;

4) Bank xodimlariga, tarkibiy bo‘linmalar, BXMLarga xaridlarni amalga oshirishda tegishli maslahatlar beradi;

5) amaldagi normativ-huquqiy hujjatlari va Bank ichki qoidalari talablariga muvofiq Bank Boshqaruviga va vakolatli organlarga xaridlar sohasida tegishli hisobotlarni taqdim etadi;

6) xaridlar sohasida qonunchilik talablarining qo‘pol buzilishi holatlari bilan bog‘liq muammolar to‘g‘risida Bank Boshqaruviga, Ichki audit va Komplayens nazorat departamentlariga belgilangan tartibda xabar beradi.

**204.** Xaridlarni amalga oshirish ustidan nazorat olib boruvchi O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasi, O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Bosh prokuratura, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, Raqobatni rivojlantirish va iste‘molchilar huquqlarini himoya qilish Qo‘mitasi, tegishli davlat organlari Bank tomonidan amalga oshirilgan davlat xaridlari bo‘yicha monitoring va nazorat o‘tkazishga haqlidir.

### **19-bob. Bank tizimida o‘tkazilgan xaridlar bo‘yicha tegishli ma‘lumotlar va hisobotlarni taqdim etish tartibiq**

**205.** Xaridlar boshqarmasi Bank tizimida o‘tkazilgan xaridlar monitoringi natijalari asosida **har oyda** tegishli ma‘lumotlarni va hisobotlarini tayyorlaydi.

**206.** Bank tizimida amalga oshirilgan xaridlar bo‘yicha tegishli ma‘lumotlar va hisobotlar amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar talablariga, Bank Ustaviga muvofiq:

1) Xaridlar boshqarmasi tomonidan **Bank Boshqaruviga, Ichki audit, Komplayens nazorat va Buxgalteriya departamentlariga har oy yakunlari** bo‘yicha kelgusi oyning **10 sanasigacha**;

2) Bank Boshqaruvi tomonidan Bank Kuzatuv kengashiga **har chorak yakunlari** bo‘yicha keyingi chorak boshlangan oyning **10 sanasigacha**;

3) Bank Kuzatuv kengashi va Boshqaruvi tomonidan Aksiyadorlarning yillik umumiy yig‘ilishiga **hisobot yili yakunlari** bo‘yicha yig‘ilish o‘tkaziladigan kundan **kamida 10 kun oldin** belgilangan tartibda taqdim etib boriladi.

Zarur hollarda Xaridlar boshqarmasi tomonidan Bank Boshqaruvi va Bank Kuzatuv kengashi talablariga ko‘ra so‘ralgan muddatlarda qo‘shimcha hisobotlar va ma‘lumotlar taqdim etilishi mumkin.

207. Xarid komissiyasi faoliyati bo'yicha ma'lumot va hisobotlar "Turonbank" aksiyadorlik tijorat banki Xarid komissiyasining Nizomi"ga muvofiq taqdim etib boriladi.

## 20-bob. Xaridlar sohasidagi korrupsiya va boshqa huquqbuzarliklarga qarshi kurashish

208. Korrupsiyaga qarshi kurashishda xaridlar tizimining ochiqlanishi, xaridlarning elektron tarzda amalga oshirilishi, dastlabki ichki va tashqi nazorat hamda jamoatchilik nazorati tizimining huquqiy tartibga solish mexanizmalri orqali samarali natijaga erishiladi.

209. Mavjud chora-tadbirlar bilan bir qatorda xaridlarda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini tashkil etish uchun korrupsiya xavfini baholash, korrupsiyaga qarshi kurashishda ma'sul shaxslarni belgilash, xaridlarni rejalashtirish kabi qoidalardan iborat xavfni boshqarishning kompleks tizimini joriy etish quyidagi chora-tadbirlarni o'z ichiga oladi:

a) korrupsiya xatarlarini aniqlash ko'rsatkichlari va baholash mezonlarini ishlab chiqish;

b) xaridlarni oqilona rejjallashtirish va yillik xarid reja-jadvallarini jamoatchilikka ochiqlash. Bunda rejalashtirish bosqichidagi nazorat orqali zarur ehtiyojdan ortiq iste'mol xususiyatlariga ega bo'lgan mahsulotlarni xarid qilish holatlarining oldini olish imkoniyati yaratiladi;

c) korrupsiya xavfini aniqlashda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish, sun'iy intellektdan foydalanish, shu jumladan, korrupsiya xavfini aniqlashda indikatorlarni ishlab chiqish hamda amaliyotda qo'llash;

d) buyurtmachining xaridlarini rejalashtirish, moliyaviy resurslardan foydalanish, ta'minot zanjirini nazorat qilish, ishlab chiqarish va boshqa xo'jalik jarayonlarni yagona dasturiy ta'minot orqali tartibga solish imkoniyatini yaratish;

e) korrupsiyaga qarshi kurashish xalqaro metodikasining talab va prinsiplarini qo'llash;

f) xaridlarni amalga oshirishda mablag'larni talon-toroj qilish holatlari, tovar va xizmatlar narxining bozor qiymatidan oshib ketishining oldini olish bo'yicha jamoatchilik nazoratini to'laqonli joriy etish, byudjet intizomini mustahkamlash;

g) kalendar yil yakuni bilan xaridlari sohasida sodir etilgan huquqbuzarliklarni (ma'muriy, jinoiy va boshqa) umumlashtirish, tahlil qilish, shu orqali ularning kelib chiqish sabablari va bunga imkoniyat yaratib bergan shart-sharoitlarini aniqlash hamda bartaraf etish yuzasidan takliflar ishlab chiqish va boshqalar.

210. Bank tizimida ushbu Siyosat doirasida korrupsiyaga qarshi "komplaens-nazorat" tizimi tartib qoidalarini, me'yoriy hujjatlar talablarini buzgan rahbar va ma'sul xodimlar lavozimi, xizmat muddati va boshqa omillardan qat'i nazar, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va Bankning ichki qoidalarida ko'zda tutilgan asoslar bo'yicha javogarlikka tortiladi.

## 21-bob. Shikoyatlarni ko'rib chiqish

211. Bank tomonidan shikoyatlarni ko'rib chiqish tartibi, Qonunning 78,79-moddalarida belgilangan talablar doirasida hamda bank xarid komissiyasining muhokamasi xulosalari asosida ko'rib chiqiladi.

212. Har bir ishtirokchi, shuningdek nazoratni amalga oshirayotgan shaxslar bankning, xarid komissiyasining, uning a'zolarining, davlat xaridlari elektron tizimi operatorining harakatlari

(harakatsizligi) ustidan, agar bunday harakatlar (harakatsizlik) ishtirokchining huquqlari va qonuniy manfaatlarini buzayotgan bo'lsa, sud tartibida yoki O'RQ-684-sonli Qonunda belgilangan tartibda Davlat xaridlari sohasidagi shikoyatlarni ko'rib chiqish bo'yicha komissiyaga shikoyat qilish huquqiga ega.

**213.** Xarid qilish jarayonini kechiktirmaslik uchun shikoyatlar qonunchilikda belgilangan muddatlarda ko'rib chiqilishi, shikoyatlarni ko'rib chiqish davrida yetkazib beruvchi va g'olibni aniqlash yoki shartnoma tuzish bo'yicha harakatlarni to'xtatish elektron tizimlardan foydalangan holda amalga oshiriladi.

**214.** Xaridlar sohasidagi shikoyatlarni ko'rib chiqishning tezkor va obyektiv tizimi quyidagilar orqali joriy qilinadi:

1) Xaridlar sohasidagi shikoyatlarni ko'rib chiqish bo'yicha komissiyaning faoliyatini ko'rib chiqish orqali mustaqil qarorlarni qabul qiluvchi xaridlar subyektlari bo'lmagan shaxslardan iborat komissiyani tashkil etish;

2) Xaridlar sohasidagi shikoyatlarni ko'rib chiqishning xalqaro talablarga javob beruvchi elektron tizimini joriy etish;

3) Tezkor qarorlarni qabul qilish hamda shartnoma majburiyatlarini bajarish jarayonida nizolar va kelishmovchiliklarni xolisona hal qilish uchun mediatsiyaga, hakamlik sudiga yoki arbitraj sudiga murojaat qilish imkoniyatini ommaga yetkazish orqali keng jamoatchilik ishtirokini ta'minlash.

## **22-bob. Javobgarlik**

**215.** Bank tizimida xarid qilish tartib-taomillarini tashkil etish va o'tkazish, nazorat va monitoringi bo'yicha o'z faoliyatini amalga oshirish jarayonida O'zbekiston Respublikasining ma'muriy, jinoiy va fuqarolik qonunchiligi doirasida belgilangan qoidabuzarliklar uchun javobgar hisoblanadi.

**216.** Bank tizimida xarid qilish jaranlarida ko'rib chiqilayotgan hujjatlarning amaldagi qonunchilikka muvofiqligi yuzasidan, hamda o'z xizmat majburiyatlarini bajarish natijasida ma'lum bo'lgan ma'lumotlarning maxfiyligini, bank sirini tashkil qiluvchi hujjatlarni lozim darajada saqlanishini ta'minlash va O'zbekiston Respublikasining "Bank siri to'g'risida"gi qonuni talablariga qat'iy amal qilish yuzasidan javobgardir.

**217.** Ushbu tartib qoidalariga amal qilinishi uchun Xarid komissiyasi, Xaridlar boshqarmasi, Buxgalteriya, Yuridik xizmat va tegishli tarkibiy bo'linma rahbarlari hamda mas'ul xodimlari javobgardir.

**218.** Bank buyurtmasiga asosan amalga oshirilgan xaridlar riskini baholash Risk departamenti tomonidan amalga oshiriladi.

**219.** Xaridlarni amalga oshirish jarayonida amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar va Bank ichki qoidalari talablari buzilgan takdirida, aybdor shaxslar O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlarida va Bankning ichki qoidalariga muvofiq intizomiy, ma'muriy va jinoiy javobgarlikka tortiladi.

**220.** Bankning rahbarlari va xodimlari, egallab turgan lavozimi va ish tajribasidan qat'iy nazar, O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlari va Bankning ichki qoidalariga muvofiq xaridlarning tartib-taomillari va talablariga rioya qilish uchun belgilangan javobgar bo'ladilar.

221. Xaridlarni amalga oshirish jarayonida korrupsiya va boshqa qonun buzilishi holatlariga yo‘l qo‘ygan Bankning har qanday xodimiga nisbatan qonunchilik hujjatlari va Bankning ichki qoidalarida ko‘zda tutilgan choralari ko‘riladi.

222. Xaridlar bo‘yicha Bankka taqdim etiladigan ma‘lumotlar va hujjatlarning haqqoniyligi bo‘yicha to‘liq javobgarlik ushbu hujjatlarni taqdim etgan xo‘jalik yurituvchi subyektga yuklanadi.

### 23-bob. Yakuniy qoidalar

223. Ushbu ““Turonbank” aksiyadorlik tijorat banki tizimida xaridlarni amalga oshirish va monitoring qilish Siyosati” tasdiqlangan kundan boshlab boshlab kuchga kiradi.

224. Mazkur Siyosatga kiritiladigan barcha o‘zgartirish va qo‘shimchalar Bank Kuzatuv kengashining qarori bilan tasdiqlanadi.

225. Ushbu Siyosatga Bank Kuzatuv kengashi va Boshqaruvi, Bankning Xarid komissiyasi, Xaridlar boshqarmasi, xaridlarni amalga oshirish va uning nazorati jarayonida qatnashayotgan tarkibiy bo‘linmalar, BXM rahbar va mas‘ul xodimlarining rioya etishlari majburiy hisoblanadi.

226. Mazkur Siyosat talablariga rioya etilishi ustidan nazorat va amalga oshirilishi bo‘yicha zarur chora-tadbirlarni tashkil qilish belgilangan tartibda Bank Boshqaruvi, Xarid komissiyasi, Xaridlar boshqarmasi, Buxgaletriya departamentiga yuklanadi.

227. Ushbu Siyosat talablarining buzilishida aybdor bo‘lgan shaxslar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar bo‘ladilar.

228. Mazkur Siyosatda ko‘zda tutilmagan boshqa holatlar amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar, Bank ichki qoidalari bilan tartibga solinadi.

229. Ushbu yangi tahrirdagi ““Turonbank” aksiyadorlik tijorat banki tizimida xaridlarni amalga oshirish va monitoring qilish Siyosati” tasdiqlanishi munosabati bilan “Turonbank” ATB Kengashining 2024-yil 27-dekabrda K-84/6-sonli qarori bilan tasdiqlangan ““Turonbank” aksiyadorlik tijorat banki tizimida xaridlarni amalga oshirish va monitoring qilish Siyosati” o‘z kuchini yo‘qotadi.

*Kiritildi:*

**Xaridlar boshqarmasi boshlig‘i**

**K.Z.Zuhurov**

*Ekspert guruhi bilan kelishildi:*

**Guruh rahbari,  
Boshqaruv Raisining birinchi o‘rinbosari v.b.**

**Guruh rahbari o‘rinbosari,  
Boshqaruv Raisi o‘rinbosari v.b.**

*Ekspert guruhi a‘zolari:*

**Boshqaruv Raisi o‘rinbosari v.b.**

**Boshqaruv Raisi o‘rinbosari v.b.**

**Bank yuridik xizmati boshlig‘i v.b.**

**Komplyens nazorat departamenti direktori**

**Risk departamenti direktori**

**Ichki audit departamenti direktori**

**Ijro nazorati departamenti direktori**

**Bosh buxgalter – Buxgalteriya hisobi  
departamenti direktori**

**Xodimlarni boshqarish (HR) departamenti direktori**

**Loyihalarni boshqarish ofisi rahbari**

**Korporativ biznes departamenti direktori**

**Kichik va o‘rta biznes departament direktori**

**Chakana biznes departamenti direktori**

**Davlat dasturlari bilan ishlash departamenti**

**Anderryayting departamenti direktori**

**Muammoli aktivlar bilan ishlash departamenti direktori**

**Monitoring va nazorat qilish departamenti direktori**

**Moliya bozorlaridagi operatsiyalar  
departamenti direktori**

**Axborot texnologiyalari departamenti direktori**

**Operatsion departamenti direktori**

**Xavfsizlik departamenti direktori**

**Mijozlar servisi va marketing departamenti direktori**

**Bank karta tizimlarini qo‘llab-quvvatlash  
departamenti direktori**

**Filial tarmoqlarini boshqarish departamenti direktori**

**Strategiya bo‘yicha rahbar**

**Metodologiya ishlarini muvofiqlashtirish  
boshqarmasi boshlig‘i**

S.T. Kaldibayev

T.X.Axmedov

D.A.Rustamov

Z.S.Obidov

F.F.Maxmudov

O‘.I.Tangirov

O‘.B.Ishniyazov

D.B. Sultanov

Q.I.Po‘latov

Sh.E.Bozorov

N.I.Tangniberdiyev

F.A.Ismailov

A.N.Muradov

A.A.Muazzamov

A.K.Talipov

A.A.Jabbarov

Z.A.Xamrayev

Z.N.Boboyev

S.R.Jumaniyozov

J.B.Azimov

Z.Ya.Ibragimov

D.M.Nazarova

Sh.M.Xamrayev

J.M.Tuxmakov

U.R.Maksudov

T.Y.Kodirov

A.S.Sherov

M.J.Mo‘minov

## **“Turonbank” Aksiyadorlik tijorat banki tizimida xaridlarni amalga oshirish va monitoring qilish Siyosati loyahasini huquqiy ekspertiza o‘tkazish yuzasidan**

### **X U L O S A**

2026-yil 10-fevral

Toshkent shahri.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 19-yanvardagi 2733-son qarori bilan tasdiqlangan “Davlat organlari va tashkilotlarining yuridik xizmati to‘g‘risida”gi Nizomga hamda O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2000-yil 5-aprelda 916-son bilan ro‘yxatga olingan “Markaziy bank tomonidan tijorat banklarining ichki qoidalariga qo‘yiladigan talablar to‘g‘risida”gi Nizomning 3.1. bandiga muvofiq, “Turonbank” Aksiyadorlik tijorat banki tizimida xaridlarni amalga oshirish va monitoring qilish Siyosati loyihasi huquqiy ekspertizadan o‘tkazilganda quyidagilar

### **A N I Q L A N D I :**

Taqdim etilgan, “Turonbank” Aksiyadorlik tijorat banki tizimida xaridlarni amalga oshirish va monitoring qilish Siyosati loyihasi, O‘zbekiston Respublikasining “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”, “Davlat xaridlari to‘g‘risida”, “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”, “Xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to‘g‘risida”, “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”, “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”, “Raqobat to‘g‘risida”, “Bank siri to‘g‘risida”gi Qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 16-iyundagi “Davlat organlari va tashkilotlarining faoliyati ochiqligini ta‘minlash, shuningdek, jamoatchilik nazoratini samarali amalga oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-6247-son Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 26.12.2025-yildagi PF-259-son, 2021-yil 2-iyuldagi “Davlat xaridlari shaffofligini ta‘minlash va samaradorligini oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5171-son qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoyishi, 18.11.2025-yildagi F-59-son, 2022-yil 25-iyuldagi “Investitsiyaviy va infratuzilmaviy loyihalarning loyihaoldi, davlat xaridiga doir tender bo‘yicha xarid qilish hujjatlari va texnik topshiriqlar hamda shartnomalarni ekspertizadan o‘tkazish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-332-son qarori, Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 20-maydagi 276-son qarori bilan tasdiqlangan “Davlat xaridlarini amalga oshirish bilan bog‘liq tartib-taomillarni tashkil etish va o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi Nizom”, 2024-yil 20-dekabrda “2025-2027-yillarda davlat xaridlari tizimini takomillashtirish va rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 865-sonli qarori, Adliya vazirligida 2000-yil 5-aprelda 916-son bilan ro‘yxatga olingan “Markaziy bank tomonidan tijorat banklarining ichki qoidalariga qo‘yiladigan talablar to‘g‘risidagi Nizom”, 2020-yil 30-iyunda 3254-son bilan ro‘yxatga olingan “Tijorat banklarida korporativ boshqaruv to‘g‘risida”gi Nizom, “Turonbank” aksiyadorlik tijorat bankining Ustavi, 2023-2027-yillarda “Turonbank” ATBning rivojlanish strategiyasi, “Turonbank” ATB tizimida xarajatlarga ruxsat berish va ularni tasdiqlash (Sanksiyalash)” Bankning tegishli ichki qoidalari talablari va tartib-qoidalariga muvofiq hamda Davlat xaridlari to‘g‘risidagi qonun ijrosi yuzasidan ishlab chiqilgan.

Mazkur Siyosat “Turonbank” ATB tizimida xaridlarini amalga oshirish bilan bog‘liq tartib-taomillarni tashkil etish va o‘tkazish tartibini, xaridlarni amalga oshirish tartibi asosiy jihatlari, elektron bank xaridlarini o‘tkazishning umumiy shartlari, Bank xaridlari jarayonidagi cheklovlar, Bank xaridlarining asosiy prinsiplari, elektron do‘kondan foydalanish, auksion savdolari, eng yaxshi takliflarni tanlash, tender o‘tkazish tartiblari, xarid qilish tartib-taomillarini monitoring va nazorat qilish bo‘yicha talablar va tartib-qoidalarni belgilab beradi.

Ushbu Siyosatga muvofiq bank tizimida belgilangan tartibda xarid qilish tartib-taomillarini tashkil etish va o‘tkazish masalalari bilan shug‘ullanadigan, tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni tanlash (tender) orqali sotib olish bo‘yicha Xarid komissiyasi (keyingi o‘rinlarda “Xarid komissiyasi” deb ataladi) tashkil qilinadi.

Ushbu Siyosat loyihasi qonunchilik hujjatlariga zid emas.  
Yuqoridagilarga ko'ra, Siyosat loyihasini huquqiy ekspertizadan o'tkazish natijalari bo'yicha

#### **XULOSA QILINDI:**

"Turonbank" Aksiyadorlik tijorat banki tizimida xaridlarni amalga oshirish va monitoring qilish Siyosati loyihasi, yuqoridagi qonunchilik asosida ishlab chiqilganligi va boshqa qonunchilik hujjatlariga zid emasligi, qonunchilik texnikasi qoidalariga, havola qiluvchi normalar qo'llanilishining asosiligi va maqsadga muvofiqligi qayd etilsin.

Mazkur loyiha ko'rib chiqish uchun Ekspert guruhi muhokamasiga taqdim etilsin.

**Bank yuridik xizmati yuristi**



**Sh.Axmedov**